

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTI

**NOMODDIY MADANIY MEROSGA OID
TUSHUNCHALARNI
SHAKLLANTIRISH
(Umumiy o'rta ta'lim misolida)**

O'qituvchilar uchun uslubiy qo'llanma

Tashmatova Kamola Abdurashidovna

Toshkent – 2015



Mazkur uslubiy qoʻllanma oʻquvchilarda nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarni shakllantirish uchun tayyorlangan boʻlib, umumiy oʻrta taʼlim maktablari uchun ishlab chiqilgan. Uslubiy qoʻllanmada umumiy oʻrta taʼlim fanlari mazmunidagi nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarni shakllantirishga doir tavsiyalar berilgan.

Uslubiy qoʻllanmadan umumiy oʻrta taʼlim muassasalari oʻqituvchilari, shuningdek, mazkur muammoga qiziquvchilar foydalanishi mumkin.

M a s ' u l m u h a r r i r:
pedagogika fanlari doktori, dotsent **N.J.Isakulova**

T a q r i z c h i l a r:
Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan yoshlar murabbiysi, filologiya fanlari
nomzodi, professor **S.Yoʻldosheva**
Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent **P.Isamova.**



KIRISH

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy, iqtisodiy hamda siyosiy rivoji jamiyat barqarorligini ta'minlashda nomoddiy madaniy meros (NMM)* bilan chambarchas bog'liq. Zero, ma'naviyat imkoniyatlari darajasi qancha yuqori bo'lsa, kelajakdagi amaliy ishlar ko'lami ham shuncha samarali bo'ladi. Bu borada yurtboshimiz I.A.Karimov shunday deydi: "Xalqning madaniy qadriyatlari, ma'naviy merosi ming yillar mobaynida Sharq xalqlari uchun qudratli ma'naviyat manbai bo'lib xizmat qilgan. Uzoq vaqt davom etgan qattiq mafkuraviy tazyiqqa qaramay, O'zbekiston xalqi avloddan-avlodga o'tib kelgan o'z tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda o'ziga xos an'alarini asrab qolishga muvaffaq bo'ldi."¹ Asrlar davomida avloddan-avlodga yetkazilgan urf-odat, marosim va an'analarni tiklash va ulardan yoshlar tarbiyasida unumli foydalanish siyosati birinchi navbatda Prezidentimiz tomonidan mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq qo'yilgan vazifalar bilan bog'liqdir.

Mazkur uslubiy qo'llanma “YOA1-003. O'quvchilarda nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish tizimini shakllantirish” mavzusidagi yosh olimlarning amaliy loyihasi doirasida bajarilgan bo'lib, nomoddiy madaniy meros va unga oid tushunchalarga tarif shuningdek, 1-9-sinf darsliklarida nomoddiy madaniy meros mazmunidagi darslarning tahlili va soatlar bo'yicha taqsimoti keltirilgan. Uslubiy qo'llanmadan umumiy o'rta ta'lim tizimi o'qituvchilari darslarida foydalanishi mumkin bo'lgan nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarni shakllantirish yuzasidan na'muna tarzida dars ishlanmalari keltirilgan. Uslubiy qo'llanmadan o'rin olgan mavzuga doir test jamlanmalaridan dars yakunida o'quvchilar bilimini sinash jarayonida foydalanish mumkin. Uslubiy qo'llanma umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilari uchun mo'ljallangan.

Izoh: NMM-Nomoddiy madaniy meros

¹ Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. - Toshkent: O'zbekiston, 1998. - B 5.




I BOB NOMODDIY MADANIY MEROS VA TA'LIM-TARBIYA JARAYONI

1.1. Nomoddiy madaniy meros tushunchasi va muhofazasi

Tarixan har bir xalq yoki millat o'zining ming yillik an'ana, urf-odat, marosimlari bilan boshqa millatlardan ma'naviy jihatdan ajralib turgan. Albatta bunga yana bir qator inson ma'naviyati bog'liq tushunchalarni keltirib davom ettirish mumkin. Ammo oddiy xalq ishonadigan va ishonib bajaradigan shunday ma'naviy diniy tadbirlar va marosimlar borki, buni boshqa xalqlarda aynan kuzatish qiyin. Shu jihatdan har bir xalqning o'zligini namoyon etib turadigan bunday meroslar qadimdan xalq og'zaki ijodi na'munalari, folklor tarkibida bo'lgan. Har bir xalqda kuzatiluvchi takrorlanmas bu meros madaniyatlararo turli-tumanlikni ko'rsatib ularni bir-biridan kamsitmagan holda ajratib kelgan. Dunyo suratining tezlashuvi barcha sohalarda moddiy va ma'naviy sohada ham qator o'zgarishlarga olib keldi. Natijada rivojlangan jamiyatlar barcha sohalarda o'z imkoniyatlarini namoyon eta boshladi.

Bu hodisa, boshqacha qilib aytganda globallashuv jarayoni, rivojlanishning yangi bosqichiga ko'tarilish uchun xizmat qilsa-da, alohida olingan jamiyatlarning o'zligini namoyon qilish elementlaridan kechishi hisobiga bo'ladi. Chunki, rivojlangan jamiyat iqtisodiyoti bilan birga u yerdagi yashash tarzi, madaniyat va ma'naviyat ham boshqa jamiyatga kirib keladi. Ba'zan rivojlangan jamiyatning “ilg'or” madaniyati nisbatan kam rivojlangan jamiyatning “qoloq” madaniyatidan ko'ra past saviyada bo'lsa-da, yosh avlod tomonidan moda sifatida qabul qilinishi va bu orqali aslida o'ta insoniy bo'lgan madaniyatning ayrim elementlari butunlay yo'qotilishi mumkin.² Madaniyatlar o'rtasidagi bunday keskinlashuv o'z navbatida bir qator muammolarning kelib

² Toshmatov O'.G'. Nomoddiy madaniy meros // O'zDSMI ilmiy maqolalar to'plami. - T: Dizayn-press, 2013. - B.17-18.



”Nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarni shakllantirish” uslubiy qo’llanma chiqishiga sabab bo’ladi. Bunga misol tariqasida “Ommaviy madaniyat” va uning xalq o’zligiga ta’sirini misol tariqasida keltirishimiz mumkin. Bu xususida muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimov shunday deydi: “Tabiiyki, “ommaviy madaniyat” degan niqob ostida axloqiy buzuvchilik va zo’ravonlik, individualizm, egosentrizm, g’oyalarini tarqatish, kerak bo’lsa, shuning hisobidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an’ana va qadriyatlari, turmush tarzining ma’naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo’porishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay qo’ymaydi.”³ Mana shunday sharoitda har bir xalq o’zligini saqlab qolishga harakat qilmasa asrlar davomida shakllangan meros millat hayotidan asta-sekin o’chib keta boshlaydi. Ana shunday taxlikali vaziyatda Birlashgan Millatlar Tashkilotining fan, ta’lim va madaniyat masalalari bilan shug’ullanuvchi YUNESCO tashkiloti yangi bir tashabbus bilan chiqdi. Unga ko’ra “Nomoddiy madaniy meros” nomi bilan ataluvchi tushuncha ostida har bir xalqni boshqa millatlardan ajratib turuvchi, o’zligini namoyon etuvchi eng noyob qadriyatlarini asrash, targ’ib etish va avloddan-avlodga o’tkazish bo’yicha yangi jarayon boshlandi. YUNESKO Bosh Konferensiyasining 2003-yil 17-oktyabrda 32-sessiyada “Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish” Konvensiyasi qabul qilindi. Yurtimizda mazkur konvensiya 2007-yilda ratifikatsiya qilindi. Ratifikatsiya hujjatlari taqdim etilgandan keyin, ya’ni 2008-yil 29-apreldan boshlab O’zbekiston Respublikasi ushbu Konvensiyaning ishtirokchi-davlatiga aylandi. Bevosita NMM tushunchasiga to’xtaladigan bo’lsak, “Nomoddiy madaniy meros” urf-odatlarini, o’ziga xoslikni ifodalash shakllari, bilimlar va ko’nikmalarni, shuningdek ular bilan bog’liq jihozlar, predmetlar, artefaktlar va madaniy makonlarni aks ettiradi, ular esa o’z navbatida hamjamiyatlar, guruhlar, alohida holatlarda esa muayyan shaxs madaniy merosining bir qismi sifatida tan olinganligini anglatadi. Avloddan-avlodga o’tib kelayotgan bunday NMM doimo muayyan hamjamiyatlar va guruhlar tomonidan ularning atrof-muhitga, tabiatga va o’z

³ Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch. - Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – B 117.



”Nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarni shakllantirish” uslubiy qo’llanma tarixiga bog’liq holda yaratiladi va bu ularda o’ziga xoslikni, vorislik tuyg’usini shakllantiradi hamda shu bilan insoniyat ijodini va madaniy turli-tumanlikning hurmat qilinishiga ko’maklashadi.⁴ Shuningdek konvensiyada keltirilishicha NMMning namoyon bo’lish shakllari quyidagilarda ko’rinadi:

a) o’zlikni namoyon etishning og’zaki an’analari va shakllari, shu jumladan, ayni paytda til-nomoddiy madaniy merosni aks ettiruvchi omil sifatida;

b) ijro san’atida;

c) jamiyatning urf-odatlari, marosimlari, bayramlari;

d) tabiat va koinotga oid bilim va urf-odatlar yig’indisi;

e) an’anaviy hunarmandchilik bilan bog’liq bilim va ko’nikmalar.⁵

Yuqoridagilardan ma’lum bo’ladiki NMMning namoyon bo’lish shakllaridan biri - bu ***o’zlikni namoyon qilishning og’zaki an’ana va shakllari***. Ular asosan xalqning og’zaki ijod na’munalari bilan bog’liq avloddan - avlodga og’zaki tarzda o’tib kelayotgan, xalqning umummilliy harakterini o’zida namoyon eta oladigan ijod namunalari qamrab oladi. Bu bevosita til bilan bog’liq bo’lib, og’zaki ijod na’munalari aynan til orqali yuzaga chiqadi va avloddan-avlodga ham bevosita til yordamida o’tadi. O’zlikni namoyon qilishning og’zaki an’ana va shakllari juda keng qamrovli bo’lib, uning tarkibiga afsona, rivoyat, mif, ertak, topishmoq, tez aytish, maqol, matal, masal, hikmatli so’zlar umuman olganda xalq tomonidan og’zaki tarzda yaratilgan barcha ijod na’munalari kiradi.

Nomoddiy madaniy merosning navbatdagi shakli ***ijro san’ati*** bo’lib, unga xalqimizning ming yillar davomida ajdodlardan-avlodlarga meros bo’lib rivojlanib kelayotgan san’at turlari kiradi.

Ijrochilik san’ati tarkibida nomoddiy madaniy merosimizning juda katta qismi o’z ifodasini topadi. Sodda qilib aytilganda, xalq ijodining ijrochilik bilan

⁴ Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo’yicha xalqaro Konvensiya. 2-modda. - Parij. 2003.

⁵ Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo’yicha xalqaro Konvensiya. 2-modda. 2-band. - Parij. 2003.



”Nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarni shakllantirish” uslubiy qo’llanma

bog’liq sahnaviy janrlarning barchasi undan joy oladi. Bunda musiqa, raqs, xalq tomosha san’atining barcha janrlari tushunilishi kerak. Boshqacha qilib aytganda namoyish etishga (hoh u sahnada bo’lsin, hoh maydonda, hoh kichik davrada) mo’ljallangan janrlar ijrochilik san’ati tarkibiga kiritiladi.⁶

Jamiyatning urf-odatlar, marosimlari, bayramlari deganda asosan inson va jamiyat ular bog’liq urf-odat, marosim va bayramlar tushuniladi. Inson tug’ilishi va hayotining nihoyasigacha bo’lgan davr bevosita urf-odat, marosim va bayramlar bilan bog’liq. Bu tushunchalar insonlarni bir-birga yaqinlashtirib, ularni jamiyat bilan bog’lab kelgan. Bunday urf-odat va marosimlar qatoriga chaqaloq tug’ilishi bilan marosimlar, uning voyaga yetishi yosh davrlari hayotiy faoliyati bilan bog’liq (beshik to’y, sunnat to’y, muchal to’y, nikoh marosimlari), inson mehnat faoliyati, dehqonchilik bilan bog’liq marosimlar umuman olganda insonni jamiyat va tabiat bilan bog’lovchi barcha urf-odat, marosim va bayramlarimiz kiradi.

Tabiat va koinotga oid bilim va urf-odatlar yig’indisi shunday tushunchaki, unda inson va tabiat birlashadi. Insonlar ming yillar mobaynida tabiat sir-sinoatlarini bilishga harakat qilishgan. Bu ular uchun farovon turmush garovi, kelgusi ishlarining samarasi hisoblangan. O’z navbatida tabiatdan olgan bilimlarini avlodlardan avlodga o’tkazib kelishgan. Bunday bilimlar qatoriga xalq tabobati, an’anaviy pazandachilik sirlari, sartaroshlik san’ati, kinnachilik kabi insonlarning tabiatdan va koinot jismlari harakati natijasida olgan tajribalari kiradi.

An’anaviy hunarmandchilik bilan bog’liq bilim va ko’nikmalar o’z-o’zidan maishiy turmush jarayonida ishlatiladigan jihozlar, predmetlarni tayyorlash jarayoni, ularda aks etgan naqsh va gullarning ramziy ma’nolari bilan bog’liq bilimlar, milliy hunarmandchiligimizning nodir durdonalari, gilamdo’zlik, kashtachilik, quroqchilik, zardo’zlik, chilangarlik, kulolchilik, temirchilik kabi.

⁶ Toshmatov O.G'. Nomoddiy madaniy meros // O’zDSMI ilmiy maqolalar to’plami - Toshkent: Dizayn-press, 2013. - B. 21



”Nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarni shakllantirish” uslubiy qo’llanma

Hozirgi kunda mamlakatimizdagi NMMning 4 ta alohida ro'yxati yuritiladi. Bular:

1. Zudlik bilan muhofaza ostiga olinishi lozim bo'lgan NMM ob'ektlarining ro'yxati.
2. Jahon nomoddiy madaniy merosining Reprezentativ ro'yxatiga kiritish uchun tavsiya etiladigan nomzodlar ro'yxati.
3. NMMning milliy ro'yxati.
4. NMMning mahalliy ro'yxatlaridan iboratdir.⁷

NMM ob'ektlarining ro'yxatga kiritish ishlari O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi tomonidan amalga oshiriladi. Ro'yxatga kiritish uchun mahalliy davlat hokimiyati organlari, shuningdek yuridik va jismoniy shaxslarning takliflari asos bo'lib xizmat qiladi. Tarixiy-madaniy ekspertiza nomoddiy madaniy merosni tegishli ro'yxatga kiritilishini asoslash maqsadida o'tkaziladi. Ekspertizani tashkil etish O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligining Respublika xalq ijodiyoti va madaniy-ma'rifiy ishlar ilmiy-metodik markazi, uni o'tkazish Markaz qoshida tashkil etilgan Ilmiy-uslubiy kengash zimmasidadir. Kengash tarkibi davlat organlari, ilmiy institut va muassasalar, nodavlat, notijorat tashkilotlarning vakillari, nomoddiy madaniy merosni asrash va ulardan foydalanish yo'nalishida faoliyat yuritayotgan va tadqiqot ishlarini olib borayotgan alohida tadqiqotchilar va mutaxassislardan tashkil topadi. Xalqaro Konvensiya qabul qilinishi munosabati bilan muqaddam mavjud bo'lgan "Insoniyatning og'zaki va nomoddiy merosi durdonalari ro'yxati"ga kiritilgan NMM ob'ektlari yangi – "NMMning Reprezentativ ro'yxati"ga o'tkazildi. Ana shu ro'yxatga 2009- yilda O'zbekistondan tavsiya etilgan "Katta ashula" nomzodi va boshqa 6 ta davlat bilan birgalikda tavsiya etilgan "Navro'z" nomzodlari ham kiritildi. Shunday qilib, hozirgi kunda Reprezentativ ro'yxatda O'zbekiston bilan bog'liq 4 ta NMM bo'lib, bunday ko'rsatkich sobiq Ittifoq hududidagi birorta ham davlat kuzatilmaydi.

⁷ www.nmm.uz



”Nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarni shakllantirish” uslubiy qoʻllanma

Konvensiyaning 2.3-moddasida NMMning muhofazasi uning “yashovchanligini ta'minlovchi” omil ekanligi ta'kidlanadi. Aksariyat hollada bu NMMni amaliyotda qoʻllash, keyingi avlodga yetkazish zarurati sifatida ham keltiriladi. Muhofazani tashkil etishda u mavjud mamlakatda uni saqlash bo'yicha shart-sharoitlar yaratish orqali gullab-yashnashiga erishish mumkinligi keltirilgan. Shuningdek, muhofaza ma'lum tahdidlarga uchrayotgan va yoʻqolib ketish xavfi mavjud NMM unsurlarining yashovchanligi ta'minlashga ham xizmat qilishni ham anglatadi.

NMMni muhofaza qilish xalqaro hamjamiyat tomonidan rag'batlantiriladigan tegishli jamiyatda turli darajalarda tadbirlarni ishlab chiqish orqali vazifalarni taqsimlashni taqozo etadi. Va bu o'z navbatida Konvensiyaning tezlikda ratifikatsiya qilish bilan bog'liq bo'ladi (19.2- moddaga qarang).

Shunday qilib, NMM muhofazasi bugungi kunda mavjud bo'lgan, uning yoʻqolib ketish xavflari bartaraf etilgan, keyingi avlod undan foydalanishi va bahramand bo'lishi uchun sharoit yaratilgan, shuningdek insoniyatning barqaror taraqqiyotiga o'z hissasini qo'sha oladigan va jamiyat undan o'z nafini ko'radigan tadbirlarni ifodalashi lozim. “Barqaror taraqqiyot” 1987 yilda Brundtland komissiyasi tomonidan «hozirgi zamon talablariga javob beradigan, kelgusi avlodning shaxsiy ehtiyojlarini qondirishi uchun xavf tug'dirmaydigan taraqqiyot» sifatida aniqlangan edi.



1.2. Nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalardan umumiy oʻrta taʼlim tizimida foydalanish imkoniyatlari

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy, iqtisodiy hamda siyosiy rivoji jamiyat barqarorligini ta'minlashda NMM bilan chambarchas bog'liq. Zero, ma'naviyat imkoniyatlari darajasi qancha yuqori bo'lsa, kelajakdagi amaliy ishlar ko'lami shuncha samarali bo'ladi. 2010-2020 yillarda NMM obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish davlat dasturini tasdiqlash to'g'risida Davlat dasturi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 7-oktabrdagi 222-son qaroriga <1688222> asosan ishlab chiqildi. Hozirgi davr jamiyat ijtimoiy barqarorligini ta'minlashda NMMning tizim shaklidagi uzviylik yo'llarini ilmiy jihatdan ishlab chiqishni va uni ta'lim-tarbiya amaliyotiga joriy etishni taqozo etish asosida ilmiy asoslangan pedagogik g'oyalar, xulosa va tavsiyalarga muhtojlik sezilmoqda. Xususan, O'.M.Rajabovning "Kichik yoshdagi maktab o'quvchilarini bolalar folklori vositasida insonparvarlik xislatlarini tarbiyalash" nomli tadqiqotida quyidagilar yaqqol namoyon bo'ladi.

"Bolalar uchun maxsus yaratilgan bu poeziya kishi ongiga ona suti bilan kiradi. Keyinchalik u yanada kengayadi, rang-barang ohanglar, xilma-xil badiiy asarlar bolalarni ovuta boshlaydi, asta-sekin kattalarning bolalarga ataganlari butun bir maktab bo'lib, ertaklar, allalar, ermaklar, maqollar, topishmoqlar, tez aytishlar shaklida to'planib, kichkintoylar uchun kattagina og'zaki badiiy adabiyotning barakali tasirida bolaning ma'naviy dunyosi shakllanadi."⁸ Tadqiqotchi masalaga yondashishda oila va maktab hamkorligiga katta ahamiyat beradi. Tarbiya avvalo oiladan boshladi shu jihatdan bolalarni oilaviy muhitdagi tarbiyasida folklor na'munalaridan qay tarzda foydalanilayotganligini aniqlash maqsadida anketa savollari bilan murojaat qiladi. So'rovnomadan ma'lum bo'lishicha ko'pgina oilalarda folklor asarlariga yetarlicha e'tibor

⁸ Rajabov O'.M. Kichik yoshdagi maktab o'quvchilarini bolalar folklori vositasida insonparvarlik xislatlarini tarbiyalash: Diss. ... p.f.n. -T. 1992. - B 66.



”Nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarni shakllantirish” uslubiy qoʻllanma

berilmaydi. Bu kamchilikni bartaraf etish maqsadida maktablarda "Tarbiya va folklor" nomli kurs tashkil etilib unda darslar maruza, suhbat va doklad koʻrinishida olib boriladi⁹ dissertatsiyada maktablardagi Oʻqish darsligi misolida ularning tarkibidagi bolalarni toʻgʻrilikka, insonparvarlikka, adolatga, insonlarga yaxshilik qilishga qaratilgan hikoyalar, ertaklar, topishmoqlar, masallar va boshqa folklor namunalari tahlil etilgan.

"Folklor bola ongida yaxshilik va yomonlik toʻgʻrisida aniq tasavvurni shakllantiradi, murakkab hayajonlarning manbai boʻlib xizmat qiladi. Ertak, matal, masal, obrazlari yaxshi xatti-harakatlarni yomon xatti-harakatlardan farqlay olishga oʻrgatadi."¹⁰

Folklor asarlaridan foydalanish ularning tarbiyaviy ahamiyatini bolalarga tushuntirishda albatta maktab va oila hamkorligida ish olib boriladi. A.Teshaboyev bu haqida oʻzining "Boshlangʻich sinf oʻquvchilarini mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda folklor asarlaridan foydalanish" nomli nomzodlik ishida boshlangʻich sinf oʻquvchilarini folklor asarlari yordamida tarbiyalashning nazariy-metodik asoslarini quyidagicha yoritgan: "Oʻzbek xalq ogʻzaki ijodining maʼnaviy merosi nanunalari hisoblangan maqol, ertak, masal, topishmoq, dosto, qoʻshiq va rivoyatlarda mehnatning inson kamolotida tutgan oʻrni va qadr-qimmatini yuksak baholangan" deb, xalq maqollari, "Uch ogʻayni botirlar", "Zumrad va Qimmat", "Aql va boylik" kabi ertaklardan misollar keltirib, ularda aks etgan gʻoyalarning bola tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etishini nazariy tomondan asoslab bergan. Tadqiqotchi oʻz ishida boshlangʻich sinflarda folklor asarlarini oʻrganish holati, shart-sharoitlarini oʻrganib, kerakli tavsiya va xulosalarni beradi. Dissertatsiyada maktablarda folklor asarlaridan foydalanish samarali tahlil etilgan va folklor asarlari asosida oʻtiladigan tajriba darsining rejasi keltirilgan.¹¹ Shuningdek M.E.Ismoilovning tadqiqotlarida xalq qoʻshiqlarining bola psixologiyasiga taʼsiri umuman qoʻshiqlar vositasida

⁹ Oʻsha manba - B 69-75.

¹⁰ Oʻsha manba. - B 76.

¹¹ Teshabayev A.Y. Boshlangʻich sinf oʻquvchilarini mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda folklor asarlaridan foydalanish: Dis...p.f.n. – Toshkent: 1995. - B 92.



”Nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarni shakllantirish” uslubiy qo’llanma bolalarni tarbiyalash borasida ilmiy ishlar olib borilgan.¹² Yuqoridagilardan ma’lum bo’ladiki folklor asarlaridan foydalanish va ularning o’quvchilar tarbiyasidagi eng muhim jihatlari ma’lum ma’noda tadqiq etilgan. Ammo NMM tushunchalarini umumiy o’rta ta’lim maktablari o’quvchilarga shakllantirilsa, maqsadga muvofiq bo’ladi. O’zbekiston Respublikasi ”Ta’lim to’g’risida”gi Qonunining 12-moddasida umumiy o’rta ta’limga izoh berilgan. Umumiy o’rta ta’lim bosqichlari quyidagicha:

- boshlang’ich ta’lim (I-IV sinflar);
- umumiy o’rta ta’lim (I-IX sinflar).

Boshlang’ich ta’lim umumiy o’rta ta’lim olish uchun zarur bo’lgan savodxonlik, bilim va ko’nikma asoslarini shakllantirishga qaratilgandir. Maktabning birinchi sinfiga bolalar olti-yetti yoshidan qabul qilinadi. Umumiy o’rta ta’lim bilimlarning zarur xajmini beradi, mustaqil fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko’nikmalarini rivojlantiradi, dastlabki tarzda kasbga yo’naltirishga va ta’limning navbatdagi bosqichini tanlashga yordam beradi.

Bolalarning qobiliyati, iste’dodini rivojlantirish uchun ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etilishi mumkin.¹³

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida to’qqiz yillik (I-IX sinflar) o’qishdan iborat umumiy o’rta ta’lim majburiydir. Ta’limning bu turi boshlang’ich ta’limni (I-IV sinflar) qamrab oladi hamda o’quvchilarning fanlar asoslari bo’yicha muntazam bilim olishlarini, ularda bilim o’zlashtirish ehtiyojini, asosiy o’quv-ilmiy va umummadaniy bilimlarni, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma’naviy-ahloqiy fazilatlarni, mehnat ko’nikmalarini, ijodiy fikrlash va atrof-muhitga ongli munosabatda bo’lishni va kasb tanlashni shakllantiradi. Umumiy o’rta ta’lim tugallanganidan keyin ta’lim fanlari va ular bo’yicha

¹² Ismoilova M.E. Xalq qo’shiqlari vositasida o’quvchilarning ma’naviy-ahloqiy fazilatlarini shakllantirish. - Qarshi. 2006. Diss. ... p.f.n. 164 b.

¹³ O’zbekiston Respublikasining ”Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni. -T: 1997. - B 4.



”Nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarni shakllantirish” uslubiy qoʻllanma olingan baholar koʻrsatilgan holda davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi attestat beriladi.¹⁴

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 15-maydagi "Umumiy oʻrta ta'limning davlat ta'lim standartiga oʻzgartirishlar kiritish haqida"gi 130 - sonli qarori asosida O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 2012- yil 16- maydagi 160 - sonli buyrugʻiga muvofiq umumta'lim maktablarining fan oʻquv dasturlariga tegishli oʻzgarishlar kiritildi.


Umumiy oʻrta ta'limda NMMga oid tushunchalarni tahlil qilish uchun quyidagilar zarur:

1. Maktabning I-IX sinflari doirasida sifatli umumiy oʻrta ta'lim olishni ta'minlovchi davlat ta'lim standartlarini, oʻquv rejasini, oʻquv dasturlarini oʻrganish.
2. Malakali pedagog kadrlarni NMM bilan qurollanganlik darajasini aniqlash.
3. Oʻquv rejadagi ta'lim sohalari hamda oʻquv fanlarini tahlil qilish.
4. Tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va oʻtkazish.
5. Metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Oʻquvchini tarbiyalash, unga ta'lim berishga yoʻnaltirilgan ijtimoiy taraqqiyot bilan uzviy aloqadorlikda rivojlanib borayotgan fan-texnika yutuqlaridan samarali foydalana olish hamda ijtimoiy hayotiga shiddatli tezlikda axborotlar oqimini qabul qilib olish, ularni tahlil etish, qayta ishlash, nazariy jihatdan umumlashtirish, xulosalash hamda oʻquvchiga yetkazib berishni yoʻlga qoʻyish ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Shu sababli NMM elementlarini oʻquv fanlari mazmuniga singdirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Oʻquv fanlari mazmunida nomoddiy madaniy merosimizning boyligi boʻlgan, unutilish arafasida turgan betakror, purma'no soʻz va iboralarni toʻplash asosida maqollar, matallar, afsona va rivoyatlar, hikoyatlar («Adabiyot»


¹⁴ O'sha manba.- T: 1997. - B 27.





”Nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarni shakllantirish” uslubiy qoʻllanma

fani), NMM tarixining mohiyatini ochib beruvchi qadimiy qoʻlyozmalar («Tarix» fani), Oʻzbekistonda Navroʻzning tiklanish tarixi va mustaqillik yillarida uning ham mazmunan, ham shaklan boyishi jarayonini tadqiq etish va targʻib qilish masalalari («Vatan tuygʻusi», «Odobnoma», «Ma'naviyat asoslari» fanlari), NMM obyektlarini muhofaza qilishda tabiiy fanlarning ahamiyati hamda NMM mazmunida masala va mashqlarning ("Ona tili", "Matematika" fanlari) yechilishi kabilar e'tiborga olinadi. NMMga mazmunida rasmlar ("Tasviriy san'at" fani), «Mehnat» o'quv fanidan esa ta'lim muassasalarining yer-maydonchalarida ta'lim oluvchilar tomonidan mavsumiy ishlar bajarilishiga imkon beradi. Shuningdek, «Jismoniy tarbiya» fanida esa xalq milliy o'yinlarini o'rgatish ham maqsadga muvofiq hisoblanadi.

O'quv fanlari mazmunida NMM elementlarini singdirish uchun o'quv fanlaridagi mavjud mavzularni tahlil qilish imkonini beradi. Shu sababdan, quyidagi 2-1-jadvallarda NMM mazmunidagi mavzular tahlili boshlang'ich sinflar uchun 2-2-jadvallarda esa 5-9-sinflar uchun keltirilgan:

**Boshlang'ich sinf gumanitar fanlarida NMM tahlili**

NMM yo'nalishlari	O'qish (1-sinf)	O'qish (2-sinf)	O'qish (3-sinf)	O'qish (4-sinf)
<i>O'zlikni namoyon qilishning og'zaki an'ana va shakllari</i>	Qish. Maqollar, topishmoqlar, tezaytishlar	Tandir. Rivoyat		Ko'zacha bilan tulki
	Rivoyat (SO'). STO'-20 daqiqa	Tandir. Rivoyat		Ochko'z boy
	G'azal mulkining sultoni Alisher Navoiyning hikmatli so'zlari		Botir mergan va chaqimchi. (O'zbek xalq ertagi)	Hiylagarining jazosi
	Navro'z bayrami (SO'). STO'-20 daqiqa	Uch o'g'il. (Ertak)	Halollik. (O'zbek xalq ertagi)	Hunarsiz kishi o'limga yaqin
	Toshbaqa va quyon	Uch o'g'il. (Ertak)	Donishmand yigit. (O'zbek xalq ertagi)	
	Sher va sichqon	Non – ulug' ne'mat. (Rivoyat)		Topishmoqlar
	Maymun va duradgor (SO'). STO'-20 daqiqa	Mehmon keldi. (Ertak)	Ahillik ulug' baxt. (Ertak)	
	Rostgo'y bola	Uch o'rtoq. (Ertak)	Maqollar.	Maqollar
	Topishmoqlar	Uch o'rtoq. (Ertak)	Topishmoqlar.	
	Kapalak (SO'). STO'-20 daqiqa	Tan sihatlik – tuman boylik. O'zbek xalq ertagi	Latifalar. Tez aytishlar	
	Ochko'z sichqon	Kenja o'g'il. O'zbek xalq ertagi		
	Aqlli bog'bon (SO'). STO'-20 daqiqa	Eng yaxshi sovg'a. O'zbek xalq ertagi	Bobur va kabutar (Rivoyat).	
	Maqtanchoq g'oz	Minora va laylak. O'zbek xalq ertagi	Alpomishning bolaligi. (Ertak)	
	Yurak (Rivoyat)		Cho'pon yigit	





			Shiroq.(Rivoyat)	
			Tabiat bilan suhbat (Rivoyat).	
		Ikki oʻrtoq. Oʻzbek xalq ertagi	Noahillik oqibati (Hind ertagi).	
<i>Ijrochilik sanʼati</i>				
<i>Urf-odat, marosim va bayramlar</i>	Navroʻz bayrami (SOʻ). STOʻ-20 daqiqa	Navroʻz – tabiat tantanasi		
<i>Tabiat va koinotga oid bilim va urf-odatlar</i>				
<i>Anʼanaviy hunarmandchilikka oid bilim va koʻnikmalar</i>				

1.2-jadval

Boshlangʻich sinf tabiiy fanlarida nomoddiy madaniy meros tahlili

Nomoddiy madaniy meros yoʻnalishlari	Atrofimizdagi olam (1-sinf)	Atrofimizdagi olam (2-sinf)	Tabiatshunoslik (3-sinf)	Tabiatshunoslik (4-sinf)
<i>Oʻzlikni namoyon qilishning ogʻzaki anʼana va shakllari</i>				
<i>Ijrochilik sanʼati</i>				
<i>Urf-odat, marosim va bayramlar</i>	Navroʻz bayrami	Navroʻz – yangi kun		
<i>Tabiat va koinotga oid bilim va urf-odatlar</i>	Quyosh	Tabiatdagi jism va moddalar	Yer usti va osti suvlari	Yulduzlar. Quyosh
	Kishilarning kuzdagi mehnati	Ob-havo	Suv – hayot manbai	Sayyoralar
	Oʻsimliklar olami. Oʻsimlik qismlari	Ijtimoiy foydali mehnat	Tabiatda havo	Kometalar. Meteorlar





	Gulzor. Xona oʻsimliklari	Hasharotlar hayoti	Ob-havo	Oy — Yerning tabiiy yoʻldoshi
	Uy hayvonlari va parrandalari	Yer – sayyora	Tuproqning unumdorligi va ahamiyati	Yer yuzining asosiy shakllari
	Yovvoyi hayvonlar	Uy va yovvoyi hayvonlarning qishdagi hayoti	Tabiiy oʻsimliklar	
	Qushlar	Bahorda kishilar mehnati	Yovvoyi hayvonlar	
	Suv – ob-hayot	Bahorda hasharotlar hayoti	Hasharotlar	
	Kishilarning baxordagi mehnati	Bahorda oʻlkamizga qushlarning qaytib kelishi	Qushlar va uy parrandalari	
	Qishlogʻimiz tabiati	Oʻlkamizdagi uy va yovvoyi hayvonlar	Uy hayvonlari	
	Bizning bogʻ	Inson va tabiat	Tabiat va inson	
	Biz va tabiat		Tabiat muhofazasi	
	Yozda kishilar mehnati			
<i>Anʼanaviy hunarmandchilikka oid bilim va koʻnikmalar</i>				

1.3-jadval

Boshlangʻich sinf ijtimoiy fanlarida nomoddiy madaniy meros tahlili

Nomoddiy madaniy meros yoʻnalishlari	Odobnoma ¹⁵ (1-sinf)	Odobnoma (2-sinf)	Odobnoma (3-sinf)	Odobnoma (4-sinf)
<i>Oʻzlikni namoyon qilishning</i>			Rivoyatlardagi hikmatlar	Oʻzlikni anglash

¹⁵ Odobnoma fanidan taqvim-mavzui reja. – Toshkent, 2010





<i>og‘zaki an’ana va shakllari</i>				
<i>Ijrochilik san’ati</i>	Milliy o‘yinlar		Xalq o‘yinlari	
<i>Urf-odat, marosim va bayramlar</i>	Xotira va qadrlash kuni			
<i>Tabiat va koinotga oid bilim va urf-odatlar</i>	Ona tabiat bag‘rida	Ona tabiat	Tabiat - go‘zallik ramzi	
<i>An’anaviy hunarmandchilikka oid bilim va ko‘nikmalar</i>				Imoratlar ichida eng ulug‘i...

1.4-jadval

Boshlang‘ich sinf san’at fanlarida nomoddiy madaniy meros tahlili

Nomoddiy madaniy meros yo‘nalishlari	Musiqa madaniyati ¹⁶ (1-sinf)	Musiqa madaniyati (2-sinf)	Musiqa madaniyati (3-sinf)	Musiqa madaniyati (4-sinf)
<i>O‘zlikni namoyon qilishning og‘zaki an’ana va shakllari</i>				
<i>Ijrochilik san’ati</i>				
<i>Urf-odat, marosim va bayramlar</i>	"Oq terakmi, ko‘k terak" Bolalar xalq qo‘shig‘i. "Quyoni" o‘zbek xalq o‘yini			
<i>Tabiat va koinotga oid bilim va urf-odatlar</i>				

¹⁶ Musiqa madaniyati o‘quv fanidan optimallashtirilib, qayta ishlangan o‘quv dasturi asosida tuzilgan taqvim mavzui reja va yangi kiritilgan qo‘shiqlar jamlanmasi. – Toshkent, 2012.



<i>Anʼanaviy hunarmandchilikka oid bilim va koʻnikmalar</i>				

1.5-jadval

Boshlangʻich sinf "Mehnat" fanida nomoddiy madaniy meros tahlili



Nomoddiy madaniy meros yoʻnalishlari	Mehnat ¹⁷ (1-sinf)	Mehnat (2-sinf)	Mehnat (3-sinf)	Mehnat (4-sinf)
<i>Oʻzlikni namoyon qilishning ogʻzaki anʼana va shakllari</i>			Rivoyatlardagi hikmatlar	Oʻzlikni anglash
<i>Ijrochilik sanʼati</i>				
<i>Urf-odat, marosim va bayramlar</i>				
<i>Tabiat va koinotga oid bilim va urf-odatlar</i>				
<i>Anʼanaviy hunarmandchilikka oid bilim va koʻnikmalar</i>				

1.6-jadval

5-9-sinf "Adabiyot" fanlarida nomoddiy madaniy meros tahlili

Nomoddiy madaniy meros yoʻnalishlari	Adabiyot (5-sinf)	Adabiyot (6-sinf)	Adabiyot (7-sinf)	Adabiyot (8-sinf)	Adabiyot (9-sinf)
<i>Oʻzlikni namoyon</i>	Maqollar (10)	Maʼnaviyat	Badiiy soʻz qudrati (1)	«Kuntugʻmish»	«Alpomish» dostoni (5)

¹⁷ Mehnat fanidan taqvim-mavzui reja. – Toshkent, 2010





qilishning ogʻzaki anʼana va shakllari		xazinas(1 soat)	soat).	dostoni (4 soat)	soat).
	Topishmoqlar (1)				
	Ertaklar olamida (3)		«Ravshan» dostoni (4 soat)		
Ijrochilik sanʼati		Xalq qoʻshiqlari (2 soat)			
Urf-odat, marosim va bayramlar					
Anʼanaviy hunarmandchilikka oid bilim va koʻnikmalar					


1.7-jadval

5-9-sinf "Tarix" fanlarida nomoddiy madaniy meros tahlili

Nomoddiy madaniy meros yoʻnalishlari	Tarix (5-sinf)	Tarix (6-sinf)	Tarix (7-sinf)	Tarix (8-sinf)	Tarix (9-sinf)
Oʻzlikni namoyon qilishning ogʻzaki anʼana va shakllari	12-dars. Avesto – eng qadimgi yozma yodgorlik (1 soat)				38-dars. Teatr va musiqa sanʼati (1 soat)
	21-22-dars. Qadimgi Yunoniston va Rim afsonalari (2 soat)				
	23-dars. Toʻmaris va Shiroq jasorati (1 soat)				
	24-dars. Spitamen – Sugʻdning jasur oʻgʻloni (1 soat)				




	25-dars. Qadimgi shaharlar tarixi (1 soat)				
	42-dars. Insoniyat liboslari tarixi (1 soat)				
Urf-odat, marosim va bayramlar		3-dars. Urug‘chilik jamiyati.			
		21-22-dars. Zardushtiylik.			
Tabiat va koinotga oid bilim va urf-odatlar	39-dars. Buyuk kashfiyotlar (1 soat)	6-dars. Nil vodiysi va uning aholisi.		1-mavzu. Buyuk geografik kashfiyotlar va ularning tarixiy ahamiyati (2 soat).	
An’anaviy hunarmandchilikka oid bilim va ko‘nikmalar	43-dars. Me’morchilik tarixi (1 soat)		22-dars. Me’morchilik, san’at, musiqa va diniy e’tiqod		39-dars. Me’mor-chilik va tasviriy san’at (1 soat)
	48-dars. O‘zbekistonning tarixiy-me’moriy obidalari (1 soat)		39-dars. Hunarmandchilik va savdo aloqalari		



5-9-sinf "Vatan tuygʻusi" va "Milliy istiqlol gʻoyasi va ma'naviyat asoslari" fanlarida nomoddiy madaniy meros tahlili

Nomoddiy madaniy meros yoʻnalishlari	Vatan tuygʻusi (5-sinf)	Vatan tuygʻusi (6-sinf)	Milliy istiqlol gʻoyasi va ma'naviyat asoslari (7-sinf)	Milliy istiqlol gʻoyasi va ma'naviyat asoslari (8-sinf)	Milliy istiqlol gʻoyasi va ma'naviyat asoslari (9-sinf)
<i>Oʻzlikni namoyon qilishning ogʻzaki anʼana va shakllari</i>		4-dars: Buyuk qadamjolar (1 soat)	24-25-dars: Tarixiy xotirani tiklashda sanʼatning ahamiyati (2 soat)		27- dars: Maʼnaviy va moddiy hayot uygʻunligi (1 soat)
		10-dars: Oʻtda yonmaydigan meros (1 soat)			28-dars: Amaliy mashgʻulot.: Maʼnaviy va moddiy hayot uygʻunligi (1 soat)
		12-dars: Oʻzligimiz timsoli (1 soat)			
<i>Ijrochilik sanʼati</i>					
<i>Urf-odat, marosim va bayramlar</i>			13-14-dars: Milliy anʼana va qadriyatlar (2 soat)	30-dars: Navroʻz – eng aziz, eng milliy bayram (1 soat)	
<i>Tabiat va koinotga oid bilim va urf-odatlar</i>		5-dars: Oʻzbekiston milliy bogʻi (1 soat)			
				28-dars: Bizga tanish va notanish tabiat (amaliy mashgʻulot) (1 soat)	
<i>Anʼanaviy hunarmandchilikka oid bilim va koʻnikmalar</i>		7-dars: Qadimiy Registon (1 soat)			



II BOB. O'QUV JARAYONIDA NOMODDIY MADANIY MEROS MASALALARIDAN FOYDALANISH

2.1. Boshlang'ich ta'lim tizimida nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarni singdirish

Dars jadvali

1-Dars: "Odob" haqidagi rivoyat. Nomoddiy madaniy meros



Bo'limlar	Vaqt	Dars uchun material	O'qituvchi uchun material	O'quvchi uchun material
Tashkiliy qism	5 daqiqa			
"Odob" haqidagi rivoyat nomoddiy madaniy merosning aks etishi	25 daqiqa	Prezentatsiya	Uslubiy qo'llanma. 1-dars -B 28	Darslik
Nomoddiy madaniy meros	10 daqiqa	Prezentatsiya	Uslubiy qo'llanma. 1-dars -B 30-32	Darslik
Mustaqil ish	5 daqiqa		Uslubiy qo'llanma 1-dars -B 33	Darslik

2-Dars: "Uch o'g'il" ertagi. Nomoddiy madaniy meros

Bo'limlar	Vaqt	Dars uchun material	O'qituvchi uchun material	O'quvchi uchun material
Tashkiliy qism	5 daqiqa			
"Uch o'g'il" haqidagi ertakni	25 daqiqa	Prezentatsiya	Uslubiy qo'llanma. 1-dars -B 33	Darslik
Nomoddiy madaniy meros mazmunidagidagi ertak haqidagi dastlabki bilimlar	10 daqiqa	Prezentatsiya	Uslubiy qo'llanma. 1-dars -B 35	Darslik
Mustaqilish	5 daqiqa		Uslubiy qo'llanma 1-dars -B 38	Darslik

3-Dars: "Bobur va kabutar" rivoyati. Nomoddiy madaniy meros

Bo'limlar	Vaqt	Dars uchun material	O'qituvchi uchun material	O'quvchi uchun material
Tashkiliy qism	5 daqiqa			
"Bobur va kabutar" haqidagi rivoyat	25 daqiqa	Prezentatsiya	Uslubiy qo'llanma. 1-dars -B 38	Darslik
Nomoddiy madaniy merosning rivoyat janri haqidagi	10 daqiqa	Prezentatsiya	Uslubiy qo'llanma. 1-dars -B 39	Darslik



dastlabki bilimlar				
Mustaqilish	5 daqiqa		Uslubiy qo'llanma 1-dars -B 42	Darslik

4-dars: Naql. Nomodiy madaniy meros


Bo'limlar	Vaqt	Dars uchun material	O'qituvchi uchun material	O'quvchi uchun material
Tashkiliy qism	5 daqiqa			
Naqlar va ularning mazmuni	25 daqiqa	Prezentatsiya	Uslubiy qo'llanma. 1-dars -B 43	Darslik
Nomoddiy madaniy merosning naql janri haqidagi dastlabki bilimlar	10 daqiqa	Prezentatsiya	Uslubiy qo'llanma. 1-dars -B 45	Darslik
Mustaqilish	5 daqiqa		Uslubiy qo'llanma 1-dars -B 46	Darslik

5-dars. Maqollar. Nomoddiy madaniy meros

Bo'limlar	Vaqt	Dars uchun material	O'qituvchi uchun material	O'quvchi uchun material
Tashkiliy qism	5 daqiqa			
Maqollar mazmunidagi teran fikrlar	25 daqiqa	Prezentatsiya	Uslubiy qo'llanma. 1-dars -B 47	Darslik
Nomoddiy madaniy merosning maqol janri haqidagi dastlabki bilimlar	10 daqiqa	Prezentatsiya	Uslubiy qo'llanma. 1-dars -B 50	Darslik
Mustaqilish	5 daqiqa		Uslubiy qo'llanma 1-dars -B 51	Darslik

6-dars. Xalq qo'shiqlari. Nomoddiy madaniy meros.

Bo'limlar	Vaqt	Dars uchun material	O'qituvchi uchun material	O'quvchi uchun material
Tashkiliy qism	5 daqiqa			
Xalq qo'shiqlari haqidagi nazariy bilimlar	25 daqiqa	Prezentatsiya	Uslubiy qo'llanma. 1-dars -B 52	Darslik
Ijro san'atida xalq qo'shiqlarining namoyon bo'lishi	10 daqiqa	Prezentatsiya	Uslubiy qo'llanma. 1-dars -B 55	Darslik
Mustaqilish	5 daqiqa		Uslubiy qo'llanma 1-dars -B 57	Darslik



”Nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarni shakllantirish” uslubiy qo’llanma

7-dars. "Ravshan" dostoni. Nomoddiy madaniy meros.


Bo'limlar	Vaqt	Dars uchun material	O'qituvchi uchun material	O'quvchi uchun material
Tashkiliy qism	5 daqiqa			
"Ravshan" dostonidan parcha	25 daqiqa	Prezentatsiya	Uslubiy qo'llanma. 1-dars -B 57	Darslik
Nomoddiy madaniy merosning dostonlarda aks etishi	10 daqiqa	Prezentatsiya	Uslubiy qo'llanma. 1-dars -B 60	Darslik
Mustaqilish	5 daqiqa		Uslubiy qo'llanma 1-dars -B 61	Darslik

8-dars. "Kuntug'mish" dostoni. Nomoddiy madaniy meros.

Bo'limlar	Vaqt	Dars uchun material	O'qituvchi uchun material	O'quvchi uchun material
Tashkiliy qism	5 daqiqa			
"Kuntug'mish" dostonidan parcha	25 daqiqa	Prezentatsiya	Uslubiy qo'llanma. 1-dars -B 62	Darslik
Nomoddiy madaniy merosning dostonlarda aks etishi	10 daqiqa	Prezentatsiya	Uslubiy qo'llanma. 1-dars -B 64	Darslik
Mustaqilish	5 daqiqa		Uslubiy qo'llanma 1-dars -B 65	Darslik

9-dars. "Alpomish" dostoni. Nomoddiy madaniy meros.

Bo'limlar	Vaqt	Dars uchun material	O'qituvchi uchun material	O'quvchi uchun material
Tashkiliy qism	5 daqiqa			
"Alpomish" dostonidan parcha	25 daqiqa	Prezentatsiya	Uslubiy qo'llanma. 1-dars -B 66	Darslik
Nomoddiy madaniy merosning dostonlarda aks etishi	10 daqiqa	Prezentatsiya	Uslubiy qo'llanma. 1-dars -B 18	Darslik
Mustaqilish	5 daqiqa		Uslubiy qo'llanma 1-dars -B 70	Darslik



”Nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarni shakllantirish” uslubiy qo’llanma

1-DARS: "Odob" haqidagi rivoyat. Nomoddiy madaniy meros*

Umumiy ma’lumot	
Fan:	“O’qish”
Sinf:	1-sinf
Mavzu:	“Odob” haqidagi rivoyat. Nomoddiy madaniy meros
Mashg’ulot soati:	1 soat
O’quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:	- og’zaki bayon qilish; - suhbat; - kichik guruhlarda ishlash.

Darsning maqsad va vazifalari:	
Maqsad:	O’quvchilarga “Odob” haqidagi rivoyat orqali nomoddiy madaniy merosning kichik elementar bilimlarni berish, rivoyatlarning nomoddiy madaniy meros shakli ekanligi haqidagi dastlabki tushunchalarni berish
Vazifalar:	1. Rivoyat va uning mazmunini tushuntirish . 2. Rivoyatlar ota-bobolarimizdan qolgan ulkan nomoddiy madaniy meros ekanligini tushuntirish. 3. O’quvchilarga rivoyatlar haqidagi dastlabki tushunchalarni berish

Dars mashg’uloti uchun materiallar:	
1. 1-sinf “O’qish” kitobi 2. “Rivoyatlar nomoddiy madaniy merosning ajralmas qismi” mavzusidagi prezintatsiya	

Dars jarayoni va bosqichlari:			
Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
1-bosqich: Tashkiliy qism	Davomatni aniqlash va guruhlariga bo’lish	Maxsus kartochkalar yordamida	5 daqiqa
2-bosqich: Yangi mavzu bayoni	O’qituvchining “Odob” haqidagi rivoyatni o’qib berishi va tushuntirishi	Suhbat	25 daqiqa
3-bosqich: Nazariya	“Odob” haqidagi rivoyat nomoddiy madaniy merosning aks etishi	Guruh ishi	10 daqiqa
4-bosqich: Darsning umumiy xulosasi Uyga vazifa	1. Guruhlar ishining umumiy xulosasi 2. “Odob” haqidagi rivoyatni mustaqil gapirib kelishga tayyorlanish	Guruh ishi	5 daqiqa

Izoh: Birinchi mavzu fanga oid mavzu hisoblanadi. 2-mavzu nmmga oid mavzu



“Odob” haqidagi rivoyat. Nomoddiy madaniy meros

“Odob” haqidagi rivoyat o’qituvchi tomonidan o’qib beriladi. Mazmuni o’quvchilarga tushuntiriladi. Rivoyatlar otabobolarimiz aql-zakovatining oliy nishonasi ekanligi tushuntiriladi. Bolalar ongida dars mobaynida quyidagi bilimlarni shakllantirish lozim:

- ❖ “Odob” haqidagi rivoyatning umumiy mazmunini anglash;

- ❖ Luqmoni hakimning bergan javobini tushunish;

- ❖ Nima uchun odobni odobsizdan o’rganish lozimligini anglash;

- ❖ Rivoyatlarning nomoddiy madaniy meros na’munasi sifatida otabobolarimizdan bizgacha yetib kelgan meros sifatida anglash.

Shuningdek konvensiyada keltirilishicha NMMning namoyon bo’lish shakllari quyidagilarda ko’rinadi:

- ❖ o’zlikni namoyon etishning og’zaki an’analari va shakllari, shu jumladan, ayni paytda til-nomoddiy madaniy merosni aks ettiruvchi omil sifatida;

- ❖ ijro san’atida;

- ❖ jamiyatning urf-odatlar, marosimlari, bayramlari;


- ❖ tabiat va koinotga oid bilim va urf-odatlar yig’indisi;

- ❖ an’anaviy hunarmandchilik bilan bog’liq bilim va ko’nikmalar.¹⁸

“Nomoddiy madaniy meros” urf-odatlarini, o’ziga xoslikni ifodalash shakllari, bilimlar va ko’nikmalarni, shuningdek ular bilan bog’liq jihozlar, predmetlar, artefaktlar va madaniy makonlarni aks ettiradi, ular esa o’z navbatida hamjamiyatlar, guruhlar, alohida holatlarda esa muayyan shaxs madaniy merosining bir qismi sifatida tan olinganligini anglatadi.

Rivoyat-xalqning tarixiy o’tmishi haqidagi badiiy yodnomalardir. Biz rivoyatlar orqali ajdodlarimiz ko’rsatgan buyuk qahramonlikni bilib olamiz. Rivoyatlarda lutf va nazokat, aql va tadbir, ilm-ma’rifat, ezgulik kabi insoniy fazilatlar dag’allik, manmanlik, nodonlik, jaholatadolatsizlik va yovuzlikka qarama-qarshi qo’yiladi. Rivoyatlar mavzusiga ko’ra, tarixiy va joy nomlari bilan bog’liq toponimik rivoyatlarga bo’linadi.

¹⁸ Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo’yicha xalqaro Konvensiya. 2-modda. 2-band. - Parij. 2003.



”Nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarni shakllantirish” uslubiy qoʻllanma

Bu tushunchaning o'zigina biz uchun yangilik bo'lib unung tarkibi xalqimizning tarixi, madaniyati bilan chambarchas bog'liq. Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki NMMning namoyon bo'lish shakllaridan biri - bu ***o'zlikni namoyon qilishning og'zaki an'ana va shakllari***. Ular asosan xalqning og'zaki ijod na'munalari bilan bog'liq avloddan - avlodga og'zaki tarzda o'tib kelayotgan, xalqning umummilliy harakterini o'zida namoyon eta oladigan ijod namunalarini qamrab oladi. Bu bevosita til bilan bog'liq bo'lib, og'zaki ijod na'munalari aynan til orqali yuzaga chiqadi va avloddan-avlodga ham bevosita til yordamida o'tadi. O'zlikni namoyon qilishning og'zaki an'ana va shakllari juda keng qamrovli bo'lib, uning tarkibiga afsona, rivoyat, mif, ertak, topishmoq, tez aytish, maqol, matal, masal, hikmatli so'zlar umuman olganda xalq tomonidan og'zaki tarzda yaratilgan barcha ijod na'munalari kiradi. NMMning bu shakli odamlar so'zlashishni boshlagan davrlar bilan chambarchas bog'liq. Chunki aynan shu davrdan boshlab ular o'z xissiyotlarini munosabatlarini til orqali ifodalay boshladi. Ibtidoiy odamlar uchun bu ulkan imkoniyatlar eshigi bo'ldi.

Ibtidoiy kishilar hali yozuvni bilmagan zamonlarda o'z fikr-mulohazalarini og'zaki bayon etganlar. Shu asnda ularning og'zaki badiiy ijodi paydo bo'lgan. Binobarin, og'zaki ijodiyot o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan so'z san'ati bo'lib, ularning barcha na'munalari jonli ijro jarayonidagina yashaydi, shu sababdan ayrim janrlarda so'z va kuy omuxtaligi yetakchi bo'lsa, ayrimlarida sahna san'ati elementlari ustun turadi.¹⁹ Bu janrlarning paydo bo'lishi albatta dastlabki mifologik qarashlar, diniy tasavvurlar bilan bevosita bog'liq. Ana shunday qarashlar asosida shakllangan dastlabki janrlardan biri - bu rivoyatdir.

Rivoyat so'zi roviy so'zidan olingan bo'lib, tarixiy haqiqatga asoslangan holda shaxsan ko'rgan, bilgan voqealarni hikoya qiluvchi ma'nosini anglatadi. Shunday ekan, rivoyat hayotda yuz bergan voqea va hodisalarni hikoya qiladi.²⁰

¹⁹ Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O'zbek xalq poetik ijodi. - Toshkent: O'qituvchi, 1990. - B 5.

²⁰ O'zbek folklor ocherklari. II tom Mas'ul muxarrir Sarimsoqov B. - Toshkent: Fan, 1989.- B 30.



”Nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarni shakllantirish” uslubiy qoʻllanma


Rivoyatlar tarixiy va toponimik turlarga tasniflanadi. Rivoyatlarda o'sha davrning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy ahvoli aks etadi. Shuningdek rivoyatlar faqat tarixiy jarayonlardan xabar bermasdan, insonlar ma'naviy olamiga kuchli ta'sir eta olish xususiyatiga ega. Chunki rivoyatlarda ishtirok etuvchi qahramonlar tarixda yashab o'tgan ezgu ishlari bilan nom qozongan tarixiy shaxslar yoki aksincha insonlarga jabr-zulm ko'rsatgan shavqatsiz shaxslar bo'ladi. O'quvchida beixtiyor rahm, shavqat, mehr va shu kabi ezgu fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Bilim va ko'nikmalar	Mavzuni mustahkamlash uchun savollar
“Odob” haqidagi rivoyatning mazmunini tushunish Luqmoni hakimning javobini to'g'ri anglash Nomoddiy madaniy merosga oid ilk tushunchalarga ega bo'lish	Beriladigan savollar: Rivoyatda Luqmoni hakim nima uchun “Odobni odobsizdan o'rgandim” deb javob beradi? Rivoyatlar qay tarzda bizgacha yetib keladi?
O'quvchining ko'nikmasi: Rivoyatda aks etgan nomoddiy madaniy meros haqidagi dastlabki bilimlar	Beriladigan savollar: Nima uchun rivoyatlarni nomoddiy madaniy meros tarkibiga kiritamiz?

O'quv mashg'ulotidan kutilayotgan natijalar:
1. Nomoddiy madaniy meros haqidagi ilk tushunchalarga ega bo'ladi.
2. Rivoyatlarning og'zaki tarzda avloddan-avlodga o'tishini bilib oladilar.
3. Rivoyatlarda bobokalonlarimizning yuksak aql-zakovati aks etishi orqali o'quvchilarda ularga nisbat hurmat va faxr tuyg'ulari namoyon bo'ladi.

Mustaqil ish uchun topshiriqlar:

1. Rivoyat va nomoddiy madaniy meros mazmuniga mos rasm chizish
2. Ota-onalardan qanday rivoyatlar bilishini so'rash.



2-DARS: "Uch o'g'il" ertagi. Nomoddiy madaniy meros

Umumiy ma'lumot	
Fan:	“O’qish”
Sinf:	2-sinf
Mavzu:	"Uch o'g'il" ertagi. Nomoddiy madaniy meros
Mashg’ulot soati:	1 soat
O’quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:	- og’zaki bayon qilish; - suhbat; - kichik guruhlarda ishlash.

Darsning maqsad va vazifalari:	
Maqsad:	O’quvchilarga “Uch o’g’il” haqidagi ertak orqali nomoddiy madaniy meros haqidagi tushunchalarini kengaytirish
Vazifalar:	1. Ertak mazmunini to’g’ri anglash . 2. Ertaklar nomoddiy madaniy merosimizning ajralmas qismi ekanligi va og’zki tarzda bizgacha yelib kelganligini bilish.

Dars mashg’uloti uchun materiallar:	
1. 2-sinf “O’qish” kitobi 2. “Ertaklar yaxshilikka yetaklar” mavzusidagi prezintatsiya 3. Ertak mazmuniga mos rasmlar 4. Tarqatma materiallar	

Dars jarayoni va bosqichlari:			
Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
1-bosqich: Tashkiliy qism	Davomatni aniqlash va guruhlariga bo’lish	Maxsus kartochkalar yordamida	5 daqiqa
2-bosqich: Yangi mavzu bayoni	O’qituvchining “Uch o’g’il” haqidagi ertakni o’qib berishi va o’quvchilar tomonidan gapirib berilishi	Suhbat	25 daqiqa



Nazariya	Rasmlarning oʻquvchilar tomonidan ertak mazmuniga mos ravishda joylashtirilishi; Nomoddiy madaniy meros mazmunidagidagi ertak haqidagi dastlabki bilimlar	Guruh ishi	10 daqiqa
4-bosqich: Darsning umumiy xulosasi Uyga vazifa	1. Guruhlar ishining umumiy xulosasi 2. “Uch oʻgʻil” haqidagi ertakni mustaqil gapirib kelishga tayyorlanish	Guruh ishi	5 daqiqa

“Uch oʻgʻil” ertagi. Nomoddiy madaniy meros

“Uch oʻgʻil” ertagi mazmunida aks etgan zayraklik, topqirlik, hozrjavoblik va aqillik kabi xislatlar bolalarning ruhiy tomondan toʻgʻri shakllanishiga xizmat qiladi. Chunki bolalar ertaklarga ishonadi. Ertakni tinglash jarayonida oʻquvchilarda quyidagi bilimlar oʻzlashtiriladi:

❖ Oʻquvchilarning soʻz boyligi oshadi;

❖ Ertakda aks etgan asosiy mazmunni anglagan holda ertaklarning paydo boʻlishi haqidagi bilimlar ;

❖ Nomoddiy madaniy meros xalqning aql-zakovati mevasi ekanligini tushunadilar;

Ogʻzaki janrning yana bir turi ertakdir. Ertaklar ibtidoiy odamlarning barcha mifologik, fantastik, diniy, maishiy, tabiatga oid qarashlarini oʻzida mujassamlashtira olgan katta janr. Bir qarashda bu janr miflar bilan oʻxshashdek koʻrinishi mumkin.

Ertaklarning yuzaga kelishida ularning ahamiyati katta.

Ertakning paydo boʻlishida qadimiy urf-odat, marosim va miflar xal qiluvchi rol oʻynagan. Ertaklarning mustaqil janr sifatida qaror topishi real voqea va hodisalar, urugʻ va qabilalar turmushi bilan bogʻliq miflar anʼanaviy urf-odatlar oʻz kuchi va maishiy vazifasini yoʻqotib, kishilar ongida gʻaroyib narsa boʻlib anglashila boshlagan edi. Ertak motivlarining dastlabki naʼmunalari

Ertak tushunchasi turli viloyatlarda turlicha nomda ishlatiladi. Xususan, Surxandaryo, Samarqand, Fargʻonada matal, Buxoroda ushuk, Xorazmda varsaqi, Toshkentda choʻpchak nomlari ertak termini bilan birgalikda ishlatiladi. Bu termin Mahmud Qoshgʻariyning “Devonu lugʻotit turk” asarida "etuk" tarzida uchraydi. A. Navoiyda esa choʻrchak shaklida qoʻllanilgan



”Nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarni shakllantirish” uslubiy qo’llanma ta’limiy-didaktik xarakterda bo’lib, keyinchalik ijtimoiy-maishiy mohiyat kasb etgan.²¹ Ertak tushunchasi turli viloyatlarda turlicha nomda ishlatiladi. Xususan, Surxandaryo, Samarqand, Farg’onada matal, Buxoroda ushuk, Xorazmda varsaqi, Toshkentda cho’pchak nomlari ertak termini bilan birgalikda ishlatiladi. Bu termin Mahmud Qoshg’ariyning “Devonu lug’otit turk” asarida "etuk" tarzida uchraydi. A.Navoiyda esa cho’rchak shaklida qo’llanilgan²². Ertaklarning asosiy xususiyatlaridan biri unda boshlama va tugallanma qoliplarning mavjudligi. “Bir bor ekan, bir yo’q ekan”, “Qadim-qadim zamonlarda”, “sizga bog’ bo’lsin bizga hayot” kabi boshlanmalardan so’ng asosiy maqsadga o’tilishi, shuningdek, an’anaviy tugallanmalar “barcha murod-u maqsadiga yetibdi”, “qirq kecha-yu qirq kunduz to’y-tomosho qilishibdi” kabi ijobiy ruhdagi tugallanmalar bilan yakun topishi bilan boshqa janrlardan alohida ajralib turadi. Ertaklar shartli ravishda hayvonlar haqidagi ertaklar, sehrli ertaklar, maishiy ertaklarga bo’linadi²³.

Ibtidoiy odamlar dastlab ovga chiqishdan oldin ovninig qanday kechishi, ov mobaynida qanday harakatlanishni oldindan kelishib, shunga mos tarzda harakatlanishgan va bu jarayon ko’pincha ovning omadli kechishiga olib kelgan. Bunda turli hayvonlarga taqlid qilish bilan bog’liq rituallar asosiy o’rinni egallagan. Keyinchalik hayvonlarning qo’lga o’rgatilishi va ulardan turli yumushlarda foydalanish ularni yanada yaqinlashtirdi. Hayvonlar haqidagi ertaklarning yaratilishi aynan shu jarayonlar bilan bog’liq. Xususan, “... chorvachilikka zarar keltirgan vaxshiy hayvonlardan “o’ch olish” yoki ularni masxaralash uchun qo’llangan uydirmalardan iborat bo’lgan. Bunday uydirmalar vaxshiy hayvonlarga nisbatan kinoyani anglatadi. Real voqelikni tasvirlashning bu yo’li hayvonlar haqidagi ertaklarning yuzaga kelishi va shakllanishida xal qiluvchi ro’l o’ynagan”. O’z navbatida hayvonlar haqidagi ertaklar ikki turga: sof hayvonlar haqidagi ertaklar (“Kiyik bilan kadi”, “Qaldirg’och bilan zinglovuq”,

²¹ Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O’zbek xalq poetik ijodi. - Toshkent: O’qituvchi, 1990. - B 187.

²² O’sha manba - B 187-188.

²³ Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O’zbek xalq poetik ijodi. - Toshkent: O’qituvchi, 1990. - B 187-191.



”Nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarni shakllantirish” uslubiy qo’llanma


“Xo’roz bilan tulki”, “Boyqush”) va majoziy ertaklarga (“Susambil”, “Ilonning ishi zahar solmoqda”, “Hiylagar bedana”, “Qarg’a bilan qo’zi”) bo’linadi.²⁴ Ertaklarning navbatdagi turi sehrli ertaklardir. Bu turdagi ertakalar har qanday yoshdagi insonni hayratda qoldiradi. Chunki bunday ertaklar mifologik tasavvurlar, magiya, sehr-jodu, afsunlar bilan bog’liq bo’lib kishi e’tiborini tortadi. Sehrli ertaklar ham ibtidoiy odamning dastlabki olam haqidagi tasavvurlari mahsuli bo’lib, o’zi anglab yetmagan voqea-hodisalarning sababini aynan ertaklarda aks ettiradi.

Demak, mavhum ko’ringan real voqelik, ibtidoiy munosabatlar sehrli ertaklarda hayoliy uydirmalar orqali tasvirlangan. Binobarin, ana shu uydirmalar ibtidoiy tushunchalar majmuyigina bo’lib qolmay, balki ijodkor xalqning yaxshi turmush erkin mehnat, yorqin kelajak haqidagi orzu-istaklarining ramziy ifodasi hamdir.²⁵ Ertaklarning bu turiga misol tariqsida “Guliqahqah”, “Zumrad bilan Qimmat”, “Devqiz” kabilarni keltirish mumkin. Sehrli ertaklarda farqli ravishda maishiy ertaklar real sharoitda yuz beradigan voqea-hodisalarni ifodalaydi. Maishiy ertaklar shakl va mazmuniga ko’ra ikki turga bo’linadi. Birinchisi tanqid asos bo’lgan ertaklar, ikkinchisi tanqid asos bo’lmagan ertaklar.²⁶ Bu turdagi ertaklarda xalqning real orzulari, xususan, erk va ozodlik uchun kurashgan pahlavonlar, adolatsiz shoxga qarshi kurashgan botirlar, turmushdagi barcha qiyinchilaklarga chidab oxir-oqibat baxtga erishgan ayollar va shu kabilar aks etadi. “Uch og’a-ini botirlar”, “Zolim podsho”, “Toxir va Zuhra”, “Oygul bilan Baxtiyor” ertaklari bularga misol bo’la oladi. Yuqoridagilarda ma’lum bo’ladiki ertaklar turli sharoitlarda turli davrlarni ifodalaydi. Ammo ularning tag zahirida bir narsa ezgulik yotadi. Ertaklarning barcha turlari insonlarni yovuzlikdan saqlanishga ezgu ishlarni bajarishga undaydi. NMMning bu shakli shunisi bilan ahamiyatliki ertaklarni barcha bolalar hatto katta yoshdagi insonlar ham sevib tinglashadi. Bu birinchidan

²⁴ O’sha manba - B 191-194.

²⁵ Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O’zbek xalq poetik ijodi. - Toshkent: O’qituvchi, 1990. - B 191-198.

²⁶ O’sha manba - B 203.




”Nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarni shakllantirish” uslubiy qoʻllanma
yuqoridagi maqsadga yani bolalarni tarbiyalashda xizmat qilsa, ikkinchidan
bolaning soʻz boyligining oshishiga, tasavvurning kengayishiga hamda undagi
ijtimoiylashuv jarayonining tezlashishiga xizmat qiladi.

Bilim va koʻnikmalar	Mavzuni mustaxkamlash uchun savollar
Ertak mazmunida aks etgan ezgu gʻoyalarni togʻri anglash va nomoddiy madaniy merosimizning bu shakli haqidagi bilimlarni chuqurlashtirish yangi bilimlarni egallash	Beriladigan savollar: Ertakda oʻgʻillardan qay biri ziyrakroq va aqlliroq edi? Mazkur ertakni nima uchun nomoddiy madaniy meros naʼmunasi deya olamiz?
Oʻquvchining koʻnikmasi: Darslikda ketirilgan ertaklarni ertaklarning turlari boʻyicha ajrata olish	Beriladigan savollar: Mazkur ertak qanday qanday turga kiradi ?

Oʻquv mashgʻulotidan kutilayotgan natijalar:
4. Nomoddiy madaniy meros haqidagi ilk tushunchalarga ega boʻladi.
5. Ertaklar ogʻzaki tarzda avloddan-avlodga oʻtishini bilib oladilar.
6. Ertaklar mazmunida ota-bobolarimizning yuksak badiiy salohiyati namoyon boʻlishini tushunib oladilar.

Mustaqil ish uchun topshiriqlar:

1. Ota-onalari yordamida ertaklardan naʼmunalar toʻplash.
2. Ertak mazmuniga mos rasm chizish.



”Nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarni shakllantirish” uslubiy qo’llanma

3-Dars: "Bobur va kabutar" rivoyati. Nomoddiy madaniy meros

Umumiy ma’lumot	
Fan:	“O’qish”
Sinf:	3-sinf
Mavzu:	"Bobur va kabutar" rivoyati. Nomoddiy madaniy meros
Mashg’ulot soati:	1 soat
O’quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:	- og’zaki bayon qilish; - suhbat; - kichik guruhlarda ishlash.

Darsning maqsad va vazifalari:	
Maqsad:	Rivoyatlar va ularda aks etgan yuksak ma’naviy meros bilan o’quvchilarni tanishtirish va nomoddiy madaniy meros haqidagi bilimlarini kengaytirish.
Vazifalar:	1. Rivoyat mazmuninig qanchalik haqiqatga mos ekanligini tushunish . 2. Nomoddiy madaniy merosning bu shakli nima uchun bizgacha yetib kelganligi haqida fikr yuritish.

Dars mashg’uloti uchun materiallar:	
5. 3-sinf “O’qish” kitobi 6. “Rivoyat” mavzusidagi prezintatsiya 7. Rivoyat mazmuniga mos rasmlar 8. Tarqatma materiallar	

Dars jarayoni va bosqichlari:			
Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
1-bosqich: Tashkiliy qism	Davomatni aniqlash va guruhlariga bo’lish	Maxsus kartochkalar yordamida	5 daqiqa
2-bosqich: Yangi mavzu bayoni	O’qituvchining “Bobur va kabutar” haqidagi rivoyatni o’qib berishi va o’quvchilar tomonidan gapirib berilishi	Suhbat	25 daqiqa
3-bosqich:	Rasmlarning o’quvchilar	Guruh ishi	10 daqiqa




Назария.	tomonidan rivoyat mazmuniga mos ravishda joylashtirilishi; Nomoddiy madaniy meros mazmunidagidagi rivoyat haqidagi bilimlarni kengaytirish		
4-bosqich: Darsning umumiy xulosasi Uyga vazifa	1. Guruhlar ishining umumiy xulosasi 2. “Rivoyat” mazmunini gapirib kelishga tayyorlanish	Guruh ishi	5 daqiqa

Bobur va kabutar. Nomoddiy madaniy meros

Uzoq o'tmishda yashagan ajdodlarimizning benihoya ulkan aqliy salohiyati va ijodiy iqtidori mahsuli o'laroq yuzaga kelgan “Avesto”ning tarkibiy qismlarini tashkil etuvchi alqov va rivoyatlar dastlab og'zaki tarzda yaratilib, zardushtiylik dinining marosim va rituallarida maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan kohinlar tomonidan ijro etilgan. Shuning uchun ham bu ulug'vor ma'naviy qadriyatning yaratilishi va ommalashishi bilan bog'liq an'analar epos ijrochiligining shakllanishi, takomillashishi hamda O'rta Osiyo xalqlari orasida qadimdan taraqqiy etib kelishida muhim o'rin tutgan.²⁷ Miflardan farqli tarzda rivoyatlarda fantastik holatlar, turli din bilan bog'liq hodisalar uchramaydi. Rivoyatlarning asosida ma'lum hayotiy haqiqat yotadi. U afsonalardan shunisi bilan farq qiladiki afsonalar Aristotel tabiri bilan aytganda “Haqiqatdan habar beruvchi yolg'on hikoyalar” bo'lsa, rivoyatlar hayotiy haqiqat asosiga quriladi. Rivoyat so'zi roviy so'zidan olingan bo'lib, tarixiy haqiqatga asoslangan holda shaxsan ko'rgan, bilgan voqealarni hikoya qiluvchi ma'nosini anglatadi. Shunday ekan, rivoyat hayotda yuz bergan voqea va hodisalarni hikoya qiladi.²⁸ Rivoyatlar tarixiy va toponimik turlarga tasniflanadi. Rivoyatlarda o'sha davrning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy ahvoli aks etadi. Shuningdek rivoyatlar faqat tarixiy jarayonlardan xabar bermasdan, insonlar ma'naviy olamiga kuchli ta'sir eta olish xususiyatiga ega. Chunki rivoyatlarda ishtirok etuvchi

²⁷ Jo'rayev M., Narziqulova M. Mif, folklor va adabiyot. - Toshkent: A. Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi, 2006. - B 8.

²⁸ O'zbek folklor ocherklari. II tom Mas'ul muxarrir Sarimsoqov B. - Toshkent: Fan, 1989.- B 30.




”Nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarni shakllantirish” uslubiy qoʻllanma

qahramonlar tarixda yashab oʻtgan ezgu ishlari bilan nom qozongan tarixiy shaxslar yoki aksincha insonlarga jabr-zulm koʻrsatgan shavqatsiz shaxslar boʻladi. Oʻquvchida beixtiyor rahm, shavqat, mehr va shu kabi ezgu fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Tarixiy rivoyatlar albatta biror bir tarixiy shaxs bilan bogʻliq boʻladi. Tarixiy rivoyatlarda rivoyatning qachon yozib olinganligi ham ahamiyatga ega.

Tarixiy rivoyatlarning nisbatan kech yozib olingan naʼmunalarida obraz, voqea va hodisalar konkret, mazmunan loʻnda ifodalangan. Tarixiy rivoyatlarning uzoq vaqt oʻtmasdan yozib olingan tipida tarixiy haqiqat aynan saqlangan boʻlib, deyarli interpretatsiyaga uchramagan. Uning nisbatan keyin yozib olingan naʼmunalarida esa haqiqat xiralashgan, real voqea va shaxslar umumlashtirilgan, ideallashtirilgan.²⁹ Demak bunda vaqt oʻtishi bilan sodir boʻlgan hayotiy voqeaning ayrim elementlari tushib sujet tobora ixchamlashib boradi. Tarixiy rivoyatlarga Toʻmaris, Shiroq, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Mashrab, Ulugʻbek kabi tarixiy shaxslar bilan bogʻliq rivoyatlarni misol qilish mumkin. Rivoyatlarning toponimik turi voqeaning oʻrin-joyi bilan bogʻliq boʻladi. Bu haqida B. Sarimsoqov “Toponimik rivoyatlar oʻziga xos tabiati bilan ajralib turadi. Ularning yuzaga kelishi oʻrin-joy nomlarini bilish, oʻrganishga intilish bilan bogʻliq. Toponimik rivoyatlarning bir turkumida ilk bor yuzaga kelgan shahar va qishloq, daryo va togʻ nomlarining paydo boʻlishiga oid ibtidoiy tushunchalar bayon etilsa, ikkinchi turkumida esa elat va qabila nomlarining paydo boʻlishi, uchinchisida xalq eʼtiborini tortgan va shuxrat topgan tarixiy shaxs hamda hayoliy qahramonlar bilan bogʻliq boʻlgan nomlar izohlanadi.”³⁰ Shuningdek, bunday rivoyatlar maxsus boshlamalar “rivoyat qilishlaricha”, “bir shaharda bir tabib oʻtgan ekan”, “aytishlaricha”, “raviylar andoq rivoyat qilibdurlarkim” bilan boshlanishi bilan ham ahamiyatlidir. Rivoyat insonni ezgulikka chorlovchi oddiy yechim bilan tugallanadi.

²⁹ Oʻsha manba. - B 36.

³⁰ Oʻzbek folklor ocherklari. II tom Masʼul muxarrir Sarimsoqov B. - Toshkent: Fan, 1989. - B 37.



”Nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarni shakllantirish” uslubiy qo’llanma


Rivoyatlarning har ikki turi ham insonlarning ma’naviy olamining yuksalishiga, madaniy darajasining ko’tarilishiga xizmat qiladi. Qadimdan rivoyatlar orqali yosh avlod tarbiyalangan. Tarbiyaning bu usuli ham ma’lumot beruvchi ham tarbiyalovchi funksiyani bajargan. Shuning uchun ham NMMning bu bo’lagini o’rganish tadqiq etish va ommalashtirish muhim hisoblanadi.

Bilim va ko’nikmalar	Mavzuni mustaxkamlash uchun savollar
Rivoyat mazmunida aks etgan ezgu g’oyalarni to’g’ri anglash va nomoddiy madaniy merosimizning bu shakli haqidagi bilimlarni chuqurlashtirish, yangi bilimlarni egallash	Beriladigan savollar: Rivoyat mazmunan qanday? Mazkur rivoyatni nima uchun nomoddiy madaniy meros na’munasi deya olamiz?
O’quvchining ko’nikmasi: O’zlikni namoyon qilishning og’zaki shakl va an’analar haqida shuningdek rivoyat haqidagi bilimlarning kengayishi, darslikdani nomoddiy madaniy meros elementlarini ajrata olish	Beriladigan savollar: Rivoyatlarning qanday turlarini bilasiz? Mazkur rivoyat qanday turga kiradi?

O’quv mashg’ulotidan kutilayotgan natijalar:
1. O’zlikni namoyon qilishning og’zaki shakl va an’analar haqida shuningdek rivoyat haqidagi bilimlarning kengayishi.
2. Darslikda uchraydigan rivoyatlarni ertaklardan ajrata olish .
3. Rivoyatlar mazmunida ota-bobolarimizning yuksak badiiy salohiyati namoyon bo’lishini tushunib oladilar.

Mustaqil ish uchun topshiriqlar:

1. Rivoyatlardan na’munalar to’plash.
2. Rivoyat mazmuniga mos rasm chizish.
3. Mazkur mazmunga yaqin yana qanday rivoyatlar mavjudligini aniqlash.




4-dars: Naql. Nomodiy madaniy meros

Umumiy maʼlumot	
Fan:	“Oʻqish”
Sinf:	4-sinf
Mavzu:	Naql. Nomoddiy madaniy meros
Mashgʻulot soati:	1 soat
Oʻquv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:	- ogʻzaki bayon qilish; - suhbat; - kichik guruhlarda ishlash.

Darsning maqsad va vazifalari:	
Maqsad:	Naqlar haqidagi ilk tushunchalarni hosil qilish va nomoddiy madaniy merosning birinchi shakli boʻyicha (oʻzlikni namoyon qilishning ogʻzaki anʼana va shakllari) bilimlarni kengaytirish
Vazifalar:	1. Naql mazmunini toʻgʻri anglash. 2. Naqlar va ularda aks etgan nomoddiy madaniy meros xususiyatlarini bilib olish. 3. Nomoddiy madaniy merosning birinchi shakli yuzasidan egallangan bilimlarni takrorlash

Dars mashgʻuloti uchun materiallar:	
1. 4-sinf “Oʻqish” kitobi 2. “Naql” mavzusidagi prezintatsiya 3. Tarqatma materiallar	

Dars jarayoni va bosqichlari:			
Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
1-bosqich: Tashkiliy qism	Davomatni aniqlash va guruhlariga boʻlish	Maxsus kartochkalar yordamida	5 daqiqa
2-bosqich:	Oʻqituvchining naqlar haqidagi	Suhbat	25 daqiqa



Yangi mavzu bayoni	yangi maʼlumotlari va darslikdan misollar		
3-bosqich: Nazariya	Nomoddiy madaniy meros mazmunidagi yangi bilimlar	Guruh ishi	10 daqiqa
4-bosqich: Darsning umumiy xulosasi Uyga vazifa	1. Guruhlar ishining umumiy xulosasi 2. Naqllardan naʼmunalar keltirish	Guruh ishi	5 daqiqa

Naql. Nomoddiy madaniy meros

“Naql - muayyan asardagi bayon orasida kelib, u yoki bu axloqiy norma hamda tushunchalar haqida yuzaga kelgan fikrlarni ko'chma ma'noda izohlovchi, ta'limiy ahamiyat kasb etgan majoziy hikoya”.³¹ Naql, B.Sarimsoqovning ma'lumot berishicha O'rta Osiyo xalqlarida keng ma'noda qo'llaniladi. Qadimda xalq og'zaki ijodining na'munalari mif, ertak, afsona, rivoyat, doston, maqol, matal, topishmoqlar ham naql so'zi bilan ifodalangan. Bu so'z turli millatlarda o'ziga xos tarzda atalib turli ma'nolarni bildiradi. Xususan, Ozarbayjonlarda bizning tushunchamizdagi ertak so'zi naql deb, turkmanlarda maqol, qirg'izlarda ibratli hikoyalar, uyg'urlarda og'zaki hikoyalar naql deb ataladi.³² B.Sarimsoqov "O'zbek folklori ocherklari" nomli kitobining II tomida naqlarni semantikasi, tuzilishi va manbaiga asoslanib ikki turga: sinkretik naqlar va sof naqlarga ajratadi. Ulardan sinkretik naqlarga to'xtalib, uni ertak, afsona, rivoyat, maqol va matallar ta'sirida yuzaga kelishini takidlab bularga “Egrivoy bilan To'g'rivoy”, “Yaxshilik bilan Yomonlik”, “Ayyor bilan Sodda” kabi

“Naql O'rta Sharq xalqlari orasida ko'proq “Zarbulmasal” nomi bilan mashhur bo'lgan va bu xalq orasida turli xil ma'noda qo'llangan.”¹ “Zarbulmasal” so'zining ma'nosidan kelib chiqib majoziy ma'no beruvchi hikoya naql deb atalgan. “Zarbulmasal” so'zining ma'nosidan kelib chiqib majoziy ma'no beruvchi hikoya naql deb atalgan.

³¹ O'zbek folklor ocherklari. II tom Mas'ul muxarrir Sarimsoqov B. - Toshkent: Fan, 1989. - B 47.

³² O'zbek folklor ocherklari II tom. Mas'ul muxarrir Sarimsoqov B. - Toshkent: Fan, 1989. - B 47.



”Nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarni shakllantirish” uslubiy qo’llanma naqlarni misol tariqasida keltiradi.³³ Biz bu naqlar bilan bog’liq ertaklarni ham bilamiz, shu sababli bunday naqlar sinkretikdir.

Sof naqlar sinkretik naqlardan farqli ertak, afsonalar tasirida yuzaga kelmaydi. Bu holatni B.Sarimsoqov quyidagicha tushuntiradi. Sof naqlar uchun ko’chma ma’no va o’git chiqarish asosiy xususiyat bo’lib, hayotiy haqiqat, yaxshi axloq normalarni tashviq etish, voqealarni tushuntirish – birlamchi, uning estetik funksiyasi esa ikkilamchidir. Syujet epizodlari bazan hayotiy, ko’proq hayotiy uydirmalardan tashkil topadi. Voqea va hodisalar qisqa, biroq aniq va ravshan ifodalangan.³⁴

Bilim va ko’nikmalar	Mavzuni mustaxkamlash uchun savollar
Naqlarning nomoddiy madaniy mersimizning ajralmas qismi ekanligi va ulardagi mazmunni ifodash shakli haqidagi bilimlar	Beriladigan savollar: Ertaklar qaysi jihatiga ko’ra maqollardan farq qiladi? Nomoddiy madaniy merosning bu shakliga misollar keltiring?
O’quvchining ko’nikmasi: Darslikdan naqlarni maqollardan va boshqa janrlardan ajrata olish ko’nikmasi	Beriladigan savollar: Qanday naqlarni bilasiz misol keltiring?


O’quv mashg’ulotidan kutilayotgan natijalar:
1. Nomoddiy madaniy meros haqidagi tushunchalarni kengaytirish.
2. Naqlar og’zaki tarzda avloddan-avlodga o’tishini va uning turlarini bilib oladilar.
3. Nomoddiy madaniy merosning bu shaklini boshqa janrlardan farqlash ko’nikmasiga ega bo’ladilar.

Mustaqil ish uchun topshiriqlar:

1. Naqlardan na’munalar to’plash (ota-ona, bobo-buvilar yordamida) .
2. Naqlarga mos rasm chizish.

³³ O’sha manba - B 51.

³⁴ O’zbek folklor ocherklari II tom. Mas’ul muxarrir Sarimsoqov B. - Toshkent: Fan, 1989. - B 58.



2.2. 5-9-sinflarda nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarni singdirish



5-dars. Maqollar. Nomoddiy madaniy meros

Umumiy ma’lumot	
Fan:	“Adabiyot”
Sinf:	5-sinf
Mavzu:	Maqollar. Nomoddiy madaniy meros
Mashg’ulot soati:	1 soat
O’quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:	- og’zaki bayon qilish; - suhbat; - kichik guruhlarda ishlash.

Darsning maqsad va vazifalari:	
Maqsad:	Maqollar va ularning yuzaga kelish sabablari, ularning insonlar hayotidagi ro’li va nomoddiy madaniy meros na’munasi sifatidagi ahamiyatini boshqa janrlardan farqini tushunish
Vazifalar:	1. Maqollarda aks etgan ma’noni to’g’ri anglash. 2. Maqollarning nima uchun nomoddiy madaniy meros tarkibiga kirishini tushunish. 3. Nomoddiy madaniy merosning birinchi shakli yuzasidan egallangan bilimlarni takrorlash va kengaytirish.

Dars mashg’uloti uchun materiallar:	
1. 5-sinf “O’qish” kitobi 2. “Maqollar” mavzusidagi prezintatsiya 3. “O’zbek xalq maqollari” kitobi 4. Tarqatma materiallar	

Dars jarayoni va bosqichlari:			
Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
1-bosqich:	Davomatni aniqlash va	Maxsus	5 daqiqa



Tashkiliy qism	guruhlarga bo’lish	kartochkalar yordamida	
2-bosqich: Yangi mavzu bayoni	O’qituvchining maqollar haqidagi yangi ma’lumotlari, darslikdan va qo’shimcha adabiyotlardan misollar	Suhbat	25 daqiqa
3-bosqich: Nazariya	Nomoddiy madaniy meros mazmunidagi yangi bilimlar	Guruh ishi	10 daqiqa
4-bosqich: Darsning umumiy xulosasi Uyga vazifa	1. Guruhlar ishining umumiy xulosasi 2. Maqollardan na’munalar keltirish	Guruh ishi	5 daqiqa

Maqollar. Nomoddiy madaniy meros

Maqollar o'zbek xalq og'zaki badiiy ijodining qadimiy janrlaridan biridir. Ularda xalqimizning dunyoqarashi, jamiyatga bo'lgan munosabati va axloqiy normasi uz ifodasini topadi. Maqol-mantiqiy mushohada namunasi, odob va axloq koidalarining o'zida jamuljam etgan dono gapdir. Ular qadimdan xalq donishmandligi, aql-idroki, fikr- o'ylarining ifodasi sifatida yashab kelganlar, sinalgan, turmush tasdig'idan o'tgan tushunchalarni ifodalab, unga qanot baxsh etganlar. Maqollarning talim-tarbiyaviy ahamiyati kuchli. U kishilarni ogohlantiradi, maslahat beradi, mehnatni ulug'laydi, illatlarni hajv ostiga olib, fosh etadi. Ko'ramizki, maqollarda chuqur mazmun, mehnatkash xalq donoligi, milliy anana, uzoq asrlik hayet tajribalari, tabiat va jamiyat hodisalari haqidagi fikri, bahosi, mehnat natijalari mujassamlashgan. Shuning

Maqol xalqning ko'p asrlar mobaynida ijtimoiy – iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotda to'plagan tajribalari, kuzatishlari asosida yuzaga kelgan ixcham, chuqur mazmunga ega bo'lgan og'zaki ijod janrlaridan biridir. “Maqol atamasi arabcha (قول) – qavlun – gapirmoq, aytmoq so'zidan olingan bo'lib, aytilib yuriladigan ifoda va iboralarga nisbatan qo'llaniladi. Barcha tomodan deyarli bir xilda aytilib, bir xilda tushuniladigan ibora, ifodalar, asosan, maqol janrini tashkil etadi”.



”Nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarni shakllantirish” uslubiy qoʻllanma uchun maqollar mangulikka daxldordir. Maqollar koʻp jihatdan matallarga oʻxshasa ham, ularning har qaysisi oʻziga xos xususiyatga ega. "Temirni qizig'ida bos", "Birlashgan o'zar birlashmagan tuzar", "Er yigitga ikki nomus-bir o'lim" kabilar tom manoli maqollar bo'lib, ularning mazmunida tugal fikr, umumiy xulosa bor. "Sulaymon o'ldi, devlar qutuldi", "Tosh qattiqmi, bosh qattiq", "Ko'rgan bilan eshitgan bir emas" kabilar matallar hisoblanadi. Chunki ularning mazmunidan umumiy xulosa, tugal fikr anglashilmaydi, balki xususiy belgining o'zigina ifodalangan. Maqollar xalq tushunchasi, hayot tajribalari, mulohazalarining umumlashma xulosasigina bo'lib qolmay, haqiqatning obrazli ifodasi, u yeki masala ustidan chiqarilgan hukmdir. Maqol hajmi ixcham, kichik bo'lib, puxta ishlangan, keng manoni ifodalovchi obrazli nutq namunasidir. Maqolda ortiqcha gap so'z bo'lmaydi. Har bir so'z aniq, o'z o'rnida ishlatilgan va ahamiyatli bo'lib, o'ziga xos ritm, ohang, kompozitsiyaga ega. XI asr qomusi hisoblangan M.Qoshg'ariyning "Devonu lugatit turk" asarida keltirilgan maqollarda o'sha zamon ruhi, dunyoqarashi, kishilarning mehnatga munosabati turli xil shakllari o'z ifodasini topgan. Bu maqollar qadimgi turk urug'lari va qabilalari orasida keng tarqalgan bo'lib, ularning variantlari bizgacha yetib kelgan.

Maqollar tarixiylik xususiyatiga ega. Ular ko'pincha tarixiy voqea va hodisalar tasirida vujudga keladi. Shuning uchun ham xalq maqollarining g'oyaviy mazmunida xalq hayotining turli tomonlari o'z aksini topgan. Maqol o'z tabiatiga ko'ra xalqaro janr hisoblanadi. Dunyoda o'z maqollariga ega bo'lmagan xalqning o'zi yo'q. Chunki, har bir xalq hayotiy tajribalarini maqollar shaklida avlodlarga qoldiradi. Shuning uchun ham turli xalqlar og'zaki ijodida mazmun va shakl jihatidan bir – biriga yaqin hamda hamohang maqollar ko'p uchraydi. Chunki, har bir xalq hayoti va tarixida juda ko'p o'xshashliklar va umumiyliklar mavjud.

Ayniqsa, bir biri bilan yaqin yashovchi xalqlar og'zaki ijodi mahsullari o'xshash. Masalan, o'zbek va uyg'ur xalqlari yaqin qo'shni bo'lganliklari uchun



”Nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarni shakllantirish” uslubiy qo’llanma uzoq yillar davomida shakllangan turmush tarzi, uning o‘xshash qirralari xalqlar og‘zaki ijodi mahsullarida o‘z aksini topadi.

“Maqollar voqelikni xalqning bevosita ana shu voqelik haqidagi xulosalari, hukmlari orqali aks ettiradi. Demak, maqolda voqealarning kechishi emas, balki ular haqidagi xulosalari va hukmlari ifodalanadi.”³⁵

“Xalq maqollari bevosita mehnat jarayonida, qaynoq hayot quchog‘ida yaratilganligi sababli ularda mehnat mavzui yetakchi o‘rinni egallaydi. Mehnat mavzuidagi maqollarda mehnatga muhabbat, hurmat, ishyoqmas, dangasa va tekinxo‘rlikni qoralovchi xalqning xulosalari mujassamlashgan.”³⁶ **“Mehnat, mehnatning tagi rohat”;** **“Mehnat – rohatning poydevori”**, kabi maqollar ana shular jumlasidandir. Shuningdek, mehnat so‘zining azob-uqubat, baxtsizlik ma‘nosini ham faqat maqollarda yoki ayrim shevalardagina uchratish mumkin: **“Mehnat ham egiz-egiz, Davlat ham egiz-egiz.”**

So‘z san‘atining mahsuli sifatida maqollar ham badiiyat hodisalaridir. Ularda bir so‘zning o‘nlab ma‘no qirralari, badiiy tasvir vositalari, poetik ko‘chimlarining barcha namunalarini uchratish mumkin.

“Maqollarda botirlik, saxiylik, adolat, insof, otashin sevgi, vafodorlik, muruvvatpeshalik, do‘stlik, donolik kabi insoniy xislatlar ham ulug‘langan. Qolaversa, xalq maqollarida hukmron sinflar dunyoqarashiga xos xislatlar, din ahllari va oddiy xalq o‘rtasidagi munosabatlar, xalqning mateoralogik kuzatishlari va vaqtni qadrlash tog‘risidagi kuzatishlari juda ham yorqin aks etadi.”³⁷

Xullas xalq maqollarining mazmuniy doirasi keng qamrovli bo‘lib, ularda ijtimoiy hayot voqealari va tabiat hodisalariga aloqador xalqning barcha hukm va xulosalari tajassum topgan.

Bilim va ko‘nikmalar	Mavzuni mustaxkamlash uchun savollar
-----------------------------	---

³⁵ . O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. B. I. Sarimsoqov Q. Imomov, T. Mirzayev.Tosh. 1990. Maqollar – 91-bet.

³⁶ O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. B. I. Sarimsoqov Q. Imomov, T. Mirzayev.Tosh. 1990. Maqollar – 94-bet.

³⁷ . O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. B. I. Sarimsoqov Q. Imomov, T. Mirzayev.Tosh. 1990. Maqollar – 94-bet.




Maqollarning nomoddiy madaniy merosimizning ajralmas qismi ekanligi va ularning turli davrlarda shakllanish bosqichalari haqidagi bilimlar.	Beriladigan savollar: Maqollarning nomoddiy madaniy meros naʼmunasi ekanligini isbotlovchi ikkita dalil koʻrsating? Maqollar va naqlarning qanday farqlari bor? Maqollarning vaqt oʻtishi bilan mazmunan oʻzgarishi haqida nima deya olasiz?
Oʻquvchining koʻnikmasi: Maqollar va ularning boshqa janrlardan, xususan naqlardan ajratsa olish.	Beriladigan savollar: Maqollarning turlari boʻyicha misollar keltiring?

Oʻquv mashgʻulotidan kutilayotgan natijalar:

1. Nomoddiy madaniy meros haqidagi tushunchalarni kengaytirish.
2. Maqollar ogʻzaki ijod naʼmunasi ekanligi va ularning turlarini bilish.
3. Nomoddiy madaniy merosning bu shaklini boshqa janrlardan farqlash koʻnikmasiga ega boʻlish.

Mustaqil ish uchun topshiriqlar:

1. Maqollardan naʼmunalar toʻplash (ota-ona, bobo-buvilar yordamida) .
2. Maqollar va ularga mos nomoddiy madaniy merosning boshqa janrlarini solishtirish.





6-dars. Xalq qoʻshiqlari. Nomoddiy madaniy meros.

Umumiy maʼlumot	
Fan:	“Adabiyot”
Sinf:	6-sinf
Mavzu:	Xalq qoʻshiqlari. Nomoddiy madaniy meros
Mashgʻulot soati:	1 soat
Oʻquv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:	- ogʻzaki bayon qilish; - suhbat; - kichik guruhlarda ishlash.

Darsning maqsad va vazifalari:	
Maqsad:	Xalq qoʻshiqlari vositasida oʻquvchilarda ijobiy xususiyatlarni shakllantirish. Ularda mehnatsevarlik, xalq qoʻshiqlari mazmunidagi teran tafakkurni anglashda oʻrgatish.
Vazifalar:	1. Xalq qoʻshiqlarning mazmunini toʻgʻri anglash. 2. Xalq qoʻshiqlarining turlari boʻyicha tasniflashni oʻrgatish. 3. Mavsumiy qoʻshiqlar va ular bilan bogʻliq anʼanalarni bilish.

Dars mashgʻuloti uchun materiallar:	
1. 6-sinf “Oʻqish” kitobi 2. “Xalq qoʻshiqlari” mavzusidagi prezintatsiya 3. “Xalq qoʻshiqlari” jamlangan kitob 4. Tarqatma materiallar	

Dars jarayoni va bosqichlari:			
Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
1-bosqich: Tashkiliy qism	Davomatni aniqlash va guruhlariga boʻlish	Maxsus kartochkalar yordamida	5 daqiqa
2-bosqich: Yangi mavzu	Oʻqituvchining xalq qoʻshiqlari haqidagi yangi maʼlumotlari,	Suhbat	25 daqiqa



bayoni	darslikdan va qo’shimcha adabiyotlardan misollar		
3-bosqich: Nazariya	Nomoddiy madaniy meros mazmunidagi yangi bilimlar	Guruh ishi	10 daqiqa
4-bosqich: Darsning umumiy xulosasi Uyga vazifa	1. Guruhlar ishining umumiy xulosasi 2. Maqollardan na’munalar keltirish	Guruh ishi	5 daqiqa

Xalq qo’shiqlari. Nomoddiy madaniy meros

Mehnat qo’shiqlari - xalq og’zaki ijodining qadimiy namunalaridan birini tashkil etadi. Bu turdagi aytimlar inson faoliyatining turli jabhalari (masalan, yer haydash, tegirmon yanchish, ip yigirish va h.k) da ijod etilgan bo’lib, turfa ahamiyat kasb etib kelgan. Chorvadorlik qo’shiqlari aholining chorvachilik bilan bog’liq turmush tarzi va mehnat jarayonida shakl topgan. Ularning bizgacha yetib kelgan namunalari asosan «sog’im qo’shiqlaridan» iborat, ya’ni bu aytimlar sigir, biya, tuya, echki kabi uy hayvonlariga sog’ish paytida kuylanadi. Masalan, qora molni sog’ishda «Xo’sh-xo’sh», qo’y echkilarni sog’ishda «turey-turey», «churey-churey» kabi ataluvchi maxsus aytimlar kuylanadi. Mazkur nomlar esa shu aytimlarda naqorot singari takror bo’luvchi so’zlardan olingan bo’lib, sog’ilayotgan jonivorlar tinchlashtirish, erkalatish, iydish va boshqa maqsadlarda qo’llanadi. Dehqonchilik qo’shiqlari ham mehnat qo’shiqlarining katta qismini tashkil etadi. Ularga oid namunalar esa dehqonchilikning turli faoliyatlari bilan bog’liq holda ijod etilgan. Jumladan, yer haydash paytida «Qo’sh haydash» kuylangan bo’lsa, hosilni o’rib olishda «O’rim qo’shig’i», xirmon yanchig’ida esa «Xo’p mayda» yoki «Mayda, mayda» qo’shiqlari aytilgan.

Bajarilayotgan mehnat turiga ko’ra mehnat qo’shiqlarini uch guruhga bo’lish mumkin:

- 1. chorvadorlik qo’shig’i;**
- 2. dehqonchilik qo’shig’i;**
- 3. hunarmandchilik qo’shig’i;**

Hunarmandchilik qo’shiqlari. Bu namunalar asosan charh va (ip) yigirish, gilam to’qish, do’ppi tikish kabi mehnat vaziyatlari bilan xotin-qizlar ijodi bo’lib, chorvadorlik va dehqonchilik qo’shiqlariga nisbatan keyinroq



”Nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarni shakllantirish” uslubiy qoʻllanma shakllangandir. Binobarin, ularda mehnat aytimlari uchun yangi boʻlgan badiiy jihat va xususiyatlarni kuzatish mumkin. Biroq shuni ham inobatga olmoq kerakki, bizga qadar yetib kelgan hunarmandchilik aytimlari turli tarixiy davrlarga taalluqli badiiy va boshqa unsurlarni namoyon etadi. Xotin-qizlar charx yigirish, gilam toʻqish, doʻppi tikish singari davomli mehnatni bajarar ekanlar beihtiyor shaxsiy hayotlari bilan bogʻliq holatlarni, ruhiy kechinma va dardarini aytim orqali «yoza» boshlaydilar va shu tariqa mehnat qoʻshiqlariga lirik tuygʻular kirib boradi.

Oʻzbek xalqining uzun oʻtmishi davomida koʻplab mavsumiy marosim qoʻshiqlari ijod etilgan boʻlib, ularning ajoyib namunalari goʻzal bahor fasli va undagi asosiy sana - Navroʻz bayramiga bogʻliqdir.


«Boychekak», «Laylak keldi», «Qaldirgʻoch», «Chittigul», «Oq teragimi, koʻk terak» kabi hozirda maʼlum oʻyin-qoʻshiqlar ham bizgacha yetib keldi. Endilikda koʻproq badiiy qiziqish uygʻayotgan yana bir qator mavsumiy marosimlar esa (jumladan, Sust xotin, Shox moylar, Argʻimchogʻ va b.) folklor-etnografik ansambllari tomonidan qayta tiklab, «sahnaviy» koʻrinishlarda ijro etila boshlandi. Shuni ham aytish kerakki, garchand u yoki bu marosim endilikda oʻz mavqeini yoʻqotgan boʻlsa-da, ammo ular ijtimoiy badiiy tafakkur rivojida maʼlum ahamiyat kasb etib kelgan. Shu oʻrinda mavsumiy marosim aytimlariga xos boʻlgan jihatlarni taʼkidlab oʻtish joizdir. Xususan, ularda:

I) nisbatan keng xajmli kuylar shakl topdi, ovoz doirasi oktavaga qadar ortib bordi hamda ushbu kuylar asosida yangi sifatli ohang tuzilmalari yuzaga keldi;

II) qoʻshiqchilikning yakkaxon va jamoaviy aytish shakillari keng namoyon boʻldi;

III) aytimlarning aytishuv va band-naqarot shakillari yuzaga kelib, ular asosida keyinchalik lapar va yalla janrlari qaror topdi;

IV) doyra va boshqa joʻrsozlarning qoʻllanishi keng tus ola boshlaydi va buning natijasida zarb usulli kuylar shakllashuvi jadallashadi.




”Nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarni shakllantirish” uslubiy qoʻllanma

«Laylak keldi» qoʻshigʻi laylak uchib kelishi munosabati bilan tom boshida aytilgan,turnalarga bagʻishlab «Argʻamchi» qoʻshigʻi kuylangan.

Bahor fasliga oid aytimlarda baʼzan jarchi ohanglarni mehnat (dehqonchilik) qoʻishqlariga payvasta boʻlishini ham koʻrish mumkin. Bu hol bejiz emas, chunki bahor fasli yerga amal kirishi vaqtini (yaʼni mehnatning boshlanganligini) ham daraklaydi. Dehqonlar yer haydash ishlarini Navroʻz bayramiga taqab boshlaganla. Bu mehnatning debochasida «Qoʻsh chiqarish» yoki «Shox moylar» marosimi oʻtkazilgan.

Jarchi ohanglarining yorqin namunasi qish fasliga oid «Oftob chiqdi» qoʻshigʻida namoyon boʻladi. Qish kunlari baʼzan quyosh chiqib, kun isiy boshlaydi. Bundan quvongan bolalar ota-onalari, qarindosh-urugʻlari yoki qoʻni-qoʻshnilari oldiga yugirib borib shirinlik yoki biron boshqa hadya olish ilinjida goʻyo bahor kelganidan darak bera boshlaydilar. Darakchi ohanglar bolalar folklori boʻlgan «Boychechak», «Tomdan tarasha tushdi», «Quyoning», «Zuv-zuv boragʻay», «Chitti gul», «Chuchvara qaynaydi», «Oshxoʻr akam» kabi koʻplab oʻyin-aytimlariga nihoyatda tabiiy singib ketgan. «Lola sayli»da lola guli haqidagi aytimlar kuylangan. Ushbu sayilning debochasida mahalliy xalq bir maydonga yigʻilishib, yigit-qizlarni lola terimiga kuzatganlar. Lola terimchilari qir-adirlarga sayir qilib, quchoq-quchoq terishgan. Soʻngra terimchilarni belgilangan maydonda mahalliy aholi tomondan tantanavor kutib olish marosim-bayrami oʻtkazilgan. Bunda oʻyin-raqslarga tushilgan yoshlik yoshlik, goʻzallik va sevgi ramzi boʻlgan lola maxsus aytimlarda vasf etilgan. Bu aytimlarda ham darakchi ohanglar taʼsiri sezilarlidir.

Bilim va koʻnikmalar	Mavzuni mustaxkamlash uchun savollar
Maqollarning nomoddiy madaniy merosimizning ajralmas qismi ekanligi va ularning turli davrlarda shakllanish bosqichalari haqidagi bilimlar.	Beriladigan savollar: Maqollarning nomoddiy madaniy meros naʼmunasi ekanligini isbotlovchi ikkita dalil koʻrsating? Maqollar va naqlarning qanday farqlari bor? Maqollarning vaqt oʻtishi bilan mazmunan




	oʻzgarishi haqida nima deya olasiz?
Oʻquvchining koʻnikmasi: Maqollar va ularning boshqa janrlardan, xususan naqlardan ajratsa olish.	Beriladigan savollar: Maqollarning turlari boʻyicha misollar keltiring?

Oʻquv mashgʻulotidan kutilayotgan natijalar:	
4.	Nomoddiy madaniy meros haqidagi tushunchalarni kengaytirish.
5.	Maqollar ogʻzaki ijod naʼmunasi ekanligi va ularning turlarini bilish.
6.	Nomoddiy madaniy merosning bu shaklini boshqa janrlardan farqlash koʻnikmasiga ega boʻlish.

Mustaqil ish uchun topshiriqlar:

1. Maqollardan naʼmunalar toʻplash (ota-ona, bobo-buvilar yordamida) .
2. Maqollar va ularga mos nomoddiy madaniy merosning boshqa janrlarini solishtirish.




7-dars. “Ravshan” dostoni. Nomoddiy madaniy meros.

Umumiy maʼlumot	
Fan:	“Adabiyot”
Sinf:	7-sinf
Mavzu:	“Ravshan” dostoni. Nomoddiy madaniy meros
Mashgʻulot soati:	1 soat
Oʻquv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:	- ogʻzaki bayon qilish; - suhbat; - kichik guruhlarda ishlash.

Darsning maqsad va vazifalari:	
Maqsad:	Doston mazmuni bilan oʻquvchilarni tanishtirish. Unda aks etgan ijobiy harakterdagi qahramonlarni oʻrnak sifatida koʻrsatish orqali ularda vatanga muhabbat, insonparvarlik kabi fazilatlarni shakllantirish.
Vazifalar:	1. Doston mazmuni bilan tanishish. 2. Dostonlar va ularning turlari boʻyicha tasniflashni oʻrganish. 3. Nomoddiy madaniy merosning bu naʼmunasini oʻgʻzaki anʼana va shakl sifatida toʻgʻri anglash. 4. Nomomddiy madaniy meros haqida bilimlarni kengaytirish.

Dars mashgʻuloti uchun materiallar:
5. 7-sinf “Adabiyot” kitobi 6. “Dostonlar” mavzusidagi prezintatsiya 7. Doston mazmuni aks etgan qoʻshimcha kitoblar 8. Tarqatma materiallar

Dars jarayoni va bosqichlari:			
Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
1-bosqich: Tashkiliy qism	Davomatni aniqlash va guruhlariga boʻlish	Maxsus kartochkalar	5 daqiqa



		yordamida	
2-bosqich: Yangi mavzu bayoni	Dostonlar haqida nazariy ma'lumot berish. Ravshan dostoni va uning boshqa dostonlardan farqini tushuntirish. Dostondan parcha o'qib, tahlil qilish.	Suhbat	25 daqiqa
3-bosqich: Nazariya	Nomoddiy madaniy meros mazmunidagi yangi bilimlar va egallangan bilimlarni mustahkamlab, kengaytirish.	Guruh ishi	10 daqiqa
4-bosqich: Darsning umumiy xulosasi Uyga vazifa	1. Guruhlar ishining umumiy xulosasi 2. Dostonni oxirigacha o'qib, tahlil qilish.	Guruh ishi	5 daqiqa

“Ravshan” dostoni. Nomoddiy madaniy meros

Xalq og'zaki ijodi badiiy adabiyotning eng qadimgi shaklidir. Negaki, badiiy asarlar dastlab og'zaki shaklda paydo bo'lgan, og'izdan-og'izga ko'chib yurgan. Hech qanday yordamchi vositalarsiz xalqning xotirasi tufayli davrlar osha avlodlarga yetib kelgani hamda kim tomonidan yaratilgani noma'lum bo'lgani uchun ham bunday asarlarga xalq og'zaki ijodi namunalari deyilgan.

O'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari orasida doston alohida o'rin tutadi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida folklorchi olimlar o'zbek baxshilari tomonidan yuz ellikka yaqin doston kuylanganini aniqlashgan va varlanti bilan qo'shib hisoblaganda, ulardan to'rt yuztacha asarni yozib olishgan. Folklorshunoslarning aytishlaricha, birgina «Go'ro'g'li»


«Doston» farschada epik asar nomini anglatadigan so'z bo'lib, u hatto qissa, romandek katta nasriy asarlarga ham nisbat beriladi. Siz bilan biz o'rganayotgan doston esa xalq og'zaki ijodida yaratilgan va yaratilayotgan muayyan kompozitsion yaxlitlikka ega bo'lgan xalq dostonlaridir.

turkumidagi dostonlar soni yuzdan oshadi, yolg'iz «Alpomish»ning qirqdan ortiq yozib olingan varlanti bor. «Doston» farscha so'z bo'lib, qissa, hikoya, sarguzasht, ta'rif ma'nolarini bildiradi. Favqulodda xususiyatlarga ega qahramonlarning boshidan o'tgan voqealar she'r va nasrda aralash tasvirlangan yirik hajmli, muallifi noma'lum epik asar xalq dostoni deyiladi. Yozma adabiyotda ham doston janridagi asarlar bor. Yozma dostonlar she'riy bo'lib,



”Nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarni shakllantirish” uslubiy qoʻllanma

biror personaj boshidan kechirgan hodisalar shoirning tuygʻulari bilan uygʻunlikda tasvirlanadi. Xalq dostonlariga xos asosiy belgilar shundan iboratki, ularda she'r bilan nasr aralashib keladi. Dostonlardagi she'rlar, asosan, o'n bir bo'g'inli bo'lib, barmoq vaznida aytiladi. Qahramonlarning o'y-mulohazalari, nisbatan tinch ruhiy holati tasviri, o'zaro so'zlashuvlari o'n bir bo'g'inli she'r bilan ifodalanadi. Qaharlansam, qirov turar murtima, O'zim o'lmay, kim keladi yurtima. Xazon bo'lib, bog'da gullar so'ldimi? Biror yurtdan elga dushman keldimi? Ayrim hollarda tasvir talabiga ko'ra yetti, sakkiz bo'g'inli she'riy ifodalar ham uchrab turadi. Otlar chopishining shiddati, suronli jang manzaralari, personajlarning tezkor harakatlari aks etgan o'rinlar yetti-sakkiz bo'g'inli she'rlar vositasida beriladi: Dushmanlarni to'plab olib, — Yetganiga qilich solib, Har dara o'likka to'lib, Bosh kesar maydon ichinda. Xalq dostonlaridagi nasriy parchalar ham o'ziga xos bo'lib, ko'pincha, saj' yo'lida, ya'ni qofiyali qora so'z shaklida yaratiladi. Nasriy parchalarning bu tarzda berilishi xalq dostonlarining ifoda darajasini, badiiy ta'sirchanligini orttiradi. Chunonchi, «Go'ro'g'lining zo'r deb ta'rifi ketgan, zarbasi toshdan o'tgan, qilichining ishlovi yetgan, tekkan omon qolmasin deb zaharning suvin 1 Qaharlansam — »qahrlansam" ma'nosida. yalatgan" nasriy parchasidagi «ketgan», «o'tgan», «yetgan», «yalatgan» so'zlari nasriy bayonga ohangdorlik, musiqiylik baxsh etadi, uni eshitish va eslab qolishni osonlashtiradi. Xalq dostonlarining deyarli hammasida uchraydigan ifodalar, tasvirlar bor. Ular folklorshunoslikda «epik qoliplar» deyiladi. Epik qolip yoki klishelar xalq dostonlarida doimiy ravishda takrorlanib turadigan holatlar tasvirida qo'llaniladi. Jumladan, dostonlarning boshlanishi va tugallanishi, personajlarning ko'rinishlari, ularning bir-birlariga qilgan nasihatlar, tulpor otlarga berilgan ta'riflar, safar yoki jang tasvirida epik qoliplardan foydalaniladi. Misol uchun: Dam shu damdir, o'zga damni dam dema, Boshing eson, davlatingni kam dema. Yoki: Kokillarim eshilgandir tol-tol, Har tolga bersa yetmas dunyo mol. Shuningdek, xalq dostonlarida asardan asarga ko'chib yuradigan, badiiy qolip holiga kelib qolgan she'riy qatorlar, qo'shmisralar yoki folklorshunoslar tili bilan




”Nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarni shakllantirish” uslubiy qoʻllanma aytganda, uslubiy formulalar ham muhim badiiy ahamiyat kasb etadi. «Yana bahor bo'lsa, ochilar

Bilim va ko'nikmalar	Mavzuni mustaxkamlash uchun savollar
1. Dostonlar va ularning turlarini bilish. 2. Dostonlar mazmunida aks etgan nomoddiy madaniy merosning davomiyligini ta'minlovchi bilimlarni ajrata olish.	Beriladigan savollar: 1. Doston deganda nimani tushunasiz? 2. Dostonlarning og'zaki an'ana va shakllarning boshqa janrlaridan qadday farqlari mavjud? 3. Dostonlarning bugungi kunda nomoddiy madaniy meros na'munasi sifatida muhofaza qilinishiga sabab nima?
O'quvchining ko'nikmasi: Dostonlarni turlari bo'yicha tasnif qila olish. Nomoddiy madaniy merosning yo'nalishlari bo'yicha farqlay olish.	Beriladigan savollar: Dostonlarning bugungi kunda nomoddiy madaniy meros na'munasi sifatida muhofaza qilinishiga sabab nima?

O'quv mashg'ulotidan kutilayotgan natijalar:
1. Nomoddiy madaniy meros haqidagi bilimlarni kengaytirish. 2. Dostonlar haqida nazariy bilimlarga ega bo'lish, dostonlarning nomoddiy madaniy meros na'munasi ekanligi. 3. Nomoddiy madaniy merosning bu shaklini boshqa janrlardan farqlash ko'nikmasiga ega bo'lish.

Mustaqil ish uchun topshiriqlar:

1. “Ravshan” dostonini o'qish .
2. Nomoddiy madaniy merosning og'zaki an'ana va shakllarini boshqa yo'nalishlardan ajrata olish.
3. Bugungi kundagi dostonchilik maktablar haqida ma'lumotlar topish.




8-dars. “Kuntugʻmish” dostoni. Nomoddiy madaniy meros.

Umumiy maʼlumot	
Fan:	“Adabiyot”
Sinf:	8-sinf
Mavzu:	“Kuntugʻmish” dostoni. Nomoddiy madaniy meros
Mashgʻulot soati:	1 soat
Oʻquv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:	- ogʻzaki bayon qilish; - suhbat; - kichik guruhlarda ishlash.

Darsning maqsad va vazifalari:	
Maqsad:	Doston mazmuni bilan oʻquvchilarni tanishtirish. Nomoddiy madaniy merosning bu naʼmunasi mazmunida aks etgan ezgu gʻoyalar va fazilatlarni oʻquvchilar ongiga shhdirish va uning muhofazasi va yashovchanligi yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishtirish.
Vazifalar:	1. Doston mazmuni bilan tanishish. 2. Dostonlar va ularning turlari boʻyicha tasniflashni oʻrganish. 3. Dostonlarning bugungi kundagi ahamiyatini oshirish yuzasidan mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ishlar bilan oʻquvchilarni tanishtirish. 4. Bugungi kundagi dostonchilik maktablari haqida oʻquvchilarning xabardorlik darajasini oshirish 5. Nomoddiy madaniy merosga oid bilimlarni kengaytirish

Dars mashgʻuloti uchun materiallar:
1. 8-sinf “Adabiyot” kitobi 2. “Dostonlar” mavzusidagi prezintatsiya 3. Doston mazmuni aks etgan qoʻshimcha adabiyotlar 4. Baxshilar ijodidan naʼmunalar tushirilgan disk




Dars jarayoni va bosqichlari:			
Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
1-bosqich: Tashkiliy qism	Davomatni aniqlash va guruhlariga bo'lish	Maxsus kartochkalar yordamida	5 daqiqa
2-bosqich: Yangi mavzu bayoni	Dostondan parcha o'qib, tahlil qilish. Dostonlar haqidagi nazariy bilimlarni kengaytirish. Bugungi kunda faoliyat olib borayotgan baxshilar	Suhbat	25 daqiqa
3-bosqich: Nazariya	Nomoddiy madaniy meros mazmunidagi yangi bilimlar va egallangan bilimlarni mustahkamlab, kengaytirish.	Guruh ishi	10 daqiqa
4-bosqich: Darsning umumiy xulosasi Uyga vazifa	1. Guruhlar ishining umumiy xulosasi 2. Dostonni to'liq o'qib tahlil qilish. 3. Nomoddiy madaniy merosning bu na'munasi yuzasidan yurtimizda amalga oshirilayotgan islohatlar yuzasidan yangi ma'lumotlar topish.	Guruh ishi	5 daqiqa

“Kuntug'mish” dostoni. Nomoddiy madaniy meros

Doston xalq og'zaki ijodi va o'zbek mumtoz adabiyotida keng foydalanib kelinayotgan epik shakllardan biridir. «Doston» so'zi xilma-xil ma'noni bildirib kelgan. Masalan, «doston» forschada epik asar nomini anglatadigan so'z bo'lib, u hatto qissa, romandek katta nasriy asarlarga ham nisbat beriladi. Siz bilan biz o'rganayotgan doston esa xalq og'zaki ijodida yaratilgan va yaratilayotgan muayyan kompozitsion yaxlitlikka ega bo'lgan xalq dostonlaridir. Ular yozma adabiyotdagi «Suhayl va Guldursun», «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun» kabi dostonlardan fantaziya ko'лами, ko'z ko'rib, quloq eshitmagan voqealar, aql bovar qilmaydigan qahramonliklar tasviri bilan farq qiladi. To'g'ri, yuqorida nomlari tilga olingan dostonlarda ham fantastik elementlar, mubolag'ali o'rinlar mavjud. Biroq ularning birortasi sujet erkinligi, favqulodda qiziq voqealar borasida xalq dostonlari bilan tenglasha olmaydi.




”Nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarni shakllantirish” uslubiy qo’llanma



Dostonlarimizda xalqimizning baxtli kunlar, ro'shnoliklar haqidagi orzu-umidlari, faqat yaxshilikka, yorug' kunlarga erishish istagi yotadi. E'tibor bersangiz, dostonlar muvaffaqiyatli yakun bilan tugaydi. Asar qahramonlari juda katta fojialarni, qiyinchiliklarni boshlaridan kechiradilar, og'ir sinovlarga bardosh beradilar, oxir-oqibat murod-maqсадlariga erishadilar. Muhabbat insonni ezgulikka yetaklaydi, sevgan kishi har qanday qahramonlikka qodir hisoblanadi. Biz o'rgangan «Kuntug'mish» dostoni sevishganlar haqida chiroyli asar, uning janrini ishqiy-qahramonlik dostoni, deb belgilash mumkin. Chunki Kuntug'mish dostonida katta qahramonliklar ko'rsatadi: yurtga qiron keltirgan ajdarni yengadi, tosh bostirib qo'yilgan kigiz ostidan chiqib ketadi. Bu qahramonliklar shunchaki o'zini ko'rsatish emas, avvalo xalqni ajdar ofatidan qutqazgan bo'lsa, sevikli yori, bolalarini deb g'oyat tang bir holatda yovlari o'rab-chirmab, ustidan tosh bostirib ketgan kigiz orasidan xalos bo'lib chiqadi.

Umuman, Kuntug'mishning dostonidagi hayoti qahramonlik bilan kechadi. Uning Xolbeka visoliga yetishish uchun uzoq safarga o'tlanishi, yo'lidagi barcha to'siq-g'ovlarni yengishi haqiqiy insoniy jasorat, fidoyilikdir. Dostonidagi Xolbeka, Gurkiboy va Mohiboy harakatlarida ham qahramonlik belgilari mavjud. Axir Xolbekaning sevgan yori, bolalari uchun jonini berishga tayyorligi, Gurkiboyning ukasi uchun o'zini fido qilishga shayligi (uning dor ostidagi so'zlarini eslang) qahramonlik emasmi?! Birgina «Kuntug'mish» dostoni emas, boshqa dostonlarda ham asar personajlari turli qahramonlik namunalarini ko'rsatadilar, bu qahramonliklar odamlarning og'irini yengil qiladi, el-yurtga ro'shnolik keltiradi. Baxshi bobolarimiz sevib kuylagan «Kuntug'mish» kabi ishqiy-qahramonlik dostonlari bizni muhabbatdek ezgu tuyg'ularni qadrlashga undaydi, fidoyilik, qahramonlikka chorlaydi, chunki ishq-muhabbat, qahramonlik, jo'mardlik doimo egizak tushunchalardir.




Bilim va koʻnikmalar	Mavzuni mustaxkamlash uchun savollar
1. Dostonlar va ularning turlarini bilish. 2. Dostonlar mazmunida aks etgan nomoddiy madaniy merosning davomiyligini taʼminlovchi bilimlarni ajrata olish.	Beriladigan savollar: 1. Doston deganda nimani tushunasiz? 2. Dostonlarning ogʻzaki anʼana va shakllarning boshqa janrlaridan qanday farqlari mavjud? 3. Dostonlarning bugungi kunda nomoddiy madaniy meros naʼmunasi sifatida muhofaza qilinishiga sabab nima?
Oʻquvchining koʻnikmasi: Dostonlarni turlari boʻyicha tasnif qila olish. Nomoddiy madaniy merosning yoʻnalishlari boʻyicha farqlay olish.	Beriladigan savollar: Dostonlarning bugungi kunda nomoddiy madaniy meros naʼmunasi sifatida muhofaza qilinishiga sabab nima?

Oʻquv mashgʻulotidan kutilayotgan natijalar:
1. Nomoddiy madaniy meros haqidagi bilimlarni kengaytirish.
2. Dostonlar haqida nazariy bilimlarga ega boʻlish, dostonlarning nomoddiy madaniy meros naʼmunasi ekanligi.
3. Nomoddiy madaniy merosning bu shaklini boshqa janrlardan farqlash koʻnikmasiga ega boʻlish.

Mustaqil ish uchun topshiriqlar:

1. “Ravshan” dostonini oʻqish .
2. Nomoddiy madaniy merosning ogʻzaki anʼana va shakllarini boshqa yoʻnalishlardan ajrata olish.
3. Bugungi kundagi dostonchilik maktablar haqida maʼlumotlar topish.
4. Dostonchilik maktabini yaratgan qaysi mashhur baxshilarni bilasiz?



”Nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarni shakllantirish” uslubiy qo’llanma

9-dars. “Alpomish” dostoni. Nomoddiy madaniy meros.

Umumiy ma’lumot	
Fan:	“Adabiyot”
Sinf:	9sinf
Mavzu:	“Kuntug’mish” dostoni. Nomoddiy madaniy meros
Mashg’ulot soati:	1 soat
O’quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:	- og’zaki bayon qilish; - suhbat; - kichik guruhlarda ishlash.

Darsning maqsad va vazifalari:	
Maqsad:	Doston mazmuni bilan o’quvchilarni tanishtirish. Nomoddiy madaniy merosning bu na’munasi mazmunida aks etgan ezgu g’oyalar va fazilatlarni o’quvchilar ongiga shidirish va uning muhofazasi va yashovchanligi yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishtirish.
Vazifalar:	1. Doston mazmuni bilan tanishish. 2. Dostonlar va ularning turlari bo’yicha tasniflashni o’rganish. 3. Dostonlarning bugungi kundagi ahamiyatini oshirish yuzasidan mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ishlar bilan o’quvchilarni tanishtirish. 4. Bugungi kundagi dostonchilik maktablari haqida o’quvchilarning xabardorlik darajasini oshirish 5. Nomoddiy madaniy merosga oid bilimlarni kengaytirish

Dars mashg’uloti uchun materiallar:
1. 9-sinf “Adabiyot” kitobi 2. “Dostonlar” mavzusidagi prezintatsiya 3. Doston mazmuni aks etgan qo’shimcha adabiyotlar 4. Baxshilar ijodidan na’munalar tushirilgan disk

Dars jarayoni va bosqichlari:			
Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt




”Nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarni shakllantirish” uslubiy qoʻllanma

1-bosqich: Tashkiliy qism	Davomatni aniqlash va guruhlariga boʻlish	Maxsus kartochkalar yordamida	5 daqiqa
2-bosqich: Yangi mavzu bayoni	Dostondan parcha oʻqib, tahlil qilish. Dostonlar haqidagi nazariy bilimlarni kengaytirish. Bugungi kunda faoliyat olib borayotgan baxshilar	Suhbat	25 daqiqa
3-bosqich: Nazariya	Nomoddiy madaniy meros mazmunidagi yangi bilimlar va egallangan bilimlarni mustahkamlab, kengaytirish.	Guruh ishi	10 daqiqa
4-bosqich: Darsning umumiy xulosasi Uyga vazifa	1. Guruhlar ishining umumiy xulosasi 2. Dostonni toʻliq oʻqib tahlil qilish. 3. Nomoddiy madaniy merosning bu naʼmunasi yuzasidan yurtimizda amalga oshirilayotgan islohatlar yuzasidan yangi maʼlumotlar topish.	Guruh ishi	5 daqiqa



“Kuntugʻmish” dostoni. Nomoddiy madaniy meros

Oʻzbek dostonchiligi taʼsirida XX asr boshlarida ertak va rivoyatlar shaklidagi tojik variantlari ham yuzaga kelgan. Oʻrta asr oʻgʻuz eposining muhim yodgorligi hisoblangan "Kitobi Dadam Qoʻrqut" tarkibidagi "Bamsi Bayrak" asari oʻzining syujeti va kompozitsiya qurilishi jihatidan "Alpomish" dostoniga yaqin turadi."Alpomish" dunyo estetik tafakkuri tarixi-da kamdan-kam uchraydigan favqulodda va noyob badiiy hodisalardan biridir. Uning favqulodda va noyoblighi shundaki, qadimiyatda yaratilgan bu ulkan epos bax-shilar tomonidan asrlar davomida kuylanib, jonli epik anʼanalarda ogʻzaki ravishda bizgacha yetib keldi. Shuning uchun ham u bugungi kunda qadimiyatning buyuk bir ehsoni, oʻzi yaratilgan davrning umumiy dunyoqarashi, ayni paytda

"Alpomish" — oʻzbek xalq qahramonlik dostoni. Turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan. "Alpomish"ning qoraqalpoq, qozoq, oltoy versiyalari doston shaklida, tatar va boshqird versiyalari ertak va rivoyat shaklida bizgacha yetib kelgan. Oʻzbeklar "Alpomish", qoraqalpoqlar "Alpamis", qozoqlar "Alpamis batir", oltoyliklar "Apip-Manash", qozon tatarlari "Alpamsha", boshqirdlar "Alpamisha va Barsin hiluu" deb nomlaganlar.



jonli anʼanaviy ijod va ijro sharoitlarida xalq ommasi ruhining obʼektiv holatini davrlararo ifodalab, mazmun va shakl jihatidan goh kengayib, goh torayib, koʻplab variantlarda va xilma xil koʻrinishlarda ajdodlardan avlodlarga yetib kelgan adabiy yodgorlik, xalq milliy tarixidagi qahramonlik voqealarining afsonalar qobigʻiga oʻralgan oʻziga xos badiiy ifodasi, buyuk epos sifatida baholanadi. "Alpomish" dostoni bundan ming yil oldin turkiy xalqlarning qad. dostonchilik anʼanalari asosida xalq ogʻzaki ijodi namunasi sifatida yaxlit doston shakli-ni olgan boʻlsada, aslida "Alpomish" dostonining eng qadimgi qatlamlari mil. av. yuz yilliklarda yurtimizda kechgan jarayonlarning badiiy talqinini oʻzida aks ettirgan. Qoʻngʻirot qabilasining turli hududlarga siljishi va ularning yangi-dan shakllanayotgan xalqlar tarkibiga kira borishi natijasida doston boshqa urugʻ va elatlarga ham oʻtib, ularning epik anʼanalari asosida qayta ishlana borib, juda keng tarqaldi va nihoyat, uning yaratilishida otabobolari ishti-rok etgan har bir xalqning oʻz eposiga aylandi. "Alpomish" dostonining ogzaki epik anʼanalarda bizgacha yetib kelgan nusxa-lari 9—10 a.larda yaratilgan. Ammo bun-day xulosa dostonga asos boʻlgan syujet va yetakchi motivlarning mifologik va tarixiy-hayotiy ildizlari qad. davrlar-ga — mil. av. zamonlarga taqalishini inkor etmaydi. Doston syujet tarkibida islomgacha bulgan karashlar va mifolo-gik qatlam mavjud. Undagi mifologik qatlam esa, kad. turmush tarzining ba-diiylashtirilgan va ideallashtirilgan koʻrinishlaridir. "Alpomish" variantlari 1922 y.dan yozib olina boshlangan. Hozirgacha Fozil Yoʻldosh oʻgli, Mahammadqul Jon-murod oʻgʻli Poʻlkan, Berdi baxshi, Said-murod Panoh oʻgʻli, Boʻri baxshi, Bekmurod Joʻraboy oʻgʻli, Mardonaqul Avliyoqul oʻgʻli, Abdulla Nurali oʻgʻli, Umir baxshi, Haydar Boycha oʻgʻli, Rahmatulla Yusuf oʻgʻli, Hodir Rahim oʻgʻli kabi oʻttizdan ortiq dostonchilardan qirqqa yaqin va-riantlari yozib olingan. Dostonning yozib olingan qoʻlyozmalarining asl nus-xalari Oʻzbekiston FA Til va adabiyot institutinnng folklor arxivida saqlanadi. Bu variantlar orasida eng mukammali, badiiy jihatdan eng yuksa-gi Fozil Yoʻldosh oʻgʻli-dan yozib olinga-ni hisoblanadi. "Alpomish"ning Berdi baxshi, Saidmurod Panoh oʻgʻli, Pulkan va Ergash Jumanbulbul oʻgʻli, Bekmurod Joʻraboy oʻgʻli, Xushboq Mardonaqulov aytgan vari-antlari ham nashr etilgan. "Alpomish" dostoni qahramonlik, mardlik, vatanparvarlik, turli elatlar va xalqlarning birodarligi, sevgi va sadoqat, oila mustahkamligi va urugʻ birligini kuylovchi ulkan epos-dir. Respublikamiz prezidenti Islom Karimov "Alpomish" dostonining 1000 yilligiga bagʻishlangan tantanali marosimda soʻzlagan nutqida aytganidek: "Alpomish" dostoni bizga insonparvarlik fazilatlaridan saboq beradi. Odil va haqgoʻy boʻlishga, oʻz



”Nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarni shakllantirish” uslubiy qoʻllanma



yurtimizni, oilamiz qoʻrgʻonini qoʻriqlashga, doʻstu yorimizni, or-nomusimizni ota-bobolarimizning muqaddas mozorlarini har qanday tajo-vuzdan himoya qilishga oʻrgatadi".

Bilim va koʻnikmalar	Mavzuni mustaxkamlash uchun savollar
3. Dostonlar va ularning turlarini bilish. 4. Dostonlar mazmunida aks etgan nomoddiy madaniy merosning davomiyligini taʼminlovchi bilimlarni ajrata olish.	Beriladigan savollar: 4. Doston deganda nimani tushunasiz? 5. Dostonlarning ogʻzaki anʼana va shakllarning boshqa janrlaridan qanday farqlari mavjud? 6. Dostonlarning bugungi kunda nomoddiy madaniy meros naʼmunasi sifatida muhofaza qilinishiga sabab nima?
Oʻquvchining koʻnikmasi: Dostonlarni turlari boʻyicha tasnif qila olish. Nomoddiy madaniy merosning yoʻnalishlari boʻyicha farqlay olish.	Beriladigan savollar: Dostonlarning bugungi kunda nomoddiy madaniy meros naʼmunasi sifatida muhofaza qilinishiga sabab nima?

Oʻquv mashgʻulotidan kutilayotgan natijalar:
4. Nomoddiy madaniy meros haqidagi bilimlarni kengaytirish. 5. Dostonlar haqida nazariy bilimlarga ega boʻlish, dostonlarning nomoddiy madaniy meros naʼmunasi ekanligi. 6. Nomoddiy madaniy merosning bu shaklini boshqa janrlardan farqlash koʻnikmasiga ega boʻlish.

Mustaqil ish uchun topshiriqlar:

4. “Alpomish” dostonini oʻqish .
5. Nomoddiy madaniy merosning ogʻzaki anʼana va shakllarini boshqa yoʻnalishlardan ajrata olish.
6. Bugungi kundagi dostonchilik maktablar haqida maʼlumotlar topish.



2.3 O’quv jarayonida nomoddiy madaniy merosga oid o’zlashtirilgan bilimlarni sinab ko’rish uchun test topshiriqlaridan na’munalar

1-sinf

1. "Odob" nomli rivoyatda Luqmoni hakim "Odobni kimdan o'rgandingiz?" degan savolga qanday javob beradi?

- a) odobni odobsizdan o'rgandim;
- b) odobni odoblidan o'rgandim;
- s) odobni o'zim o'rgandim.

2. Biz nomoddiy madaniy merosni nima uchun asrashimiz kerak?

- a) U ajdodlarimizdan bizga meros;
- b) U bizni boshqa xalqlardan ajratib turadi;
- s) A va B javoblar to'g'ri.

3. Salima Salimdan savol so'radimi,

Salim Salimadan savol so'radimi?

Bu nomoddiy merosning qaysi shakliga misol bo'la oladi?

- a) Maqol;
- b) Tez aytish;
- s) Hikmatli gap;

4. O'zbek xalq kuyi berilgan qatorni toping?


- a) "Salom bergan bolalar", "Olma";
- b) "Andijon polkasi", "Olmacha anor";
- s) "Asal qizim", "Quyonim".

5. "Oq terakmi, ko'k terak" qanday o'yin?

- A) Mavsumiy o'yin;
- B) Miliy o'yin;
- S) Mavsumiy, milliy o'yin.

6. Opa-uka - anjir

Darvozasi zanjir.



”Nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarni shakllantirish” uslubiy qoʻllanma

Darvozani ochinglar,

Cho'lga qarab qochinglar.

Cho'lning yo'li keng ekan,

Meni tutib olinglar!

Bu so'zlar qaysi o'yinda aytiladi?

- a) Quvlashmachoq o'yinida;
- b) Zag'izg'on o'yinida;
- s) Oq terakmi, ko'k terak.

7. Qadim zamonlarda qo'g'irchoq teatrlari qayerda namoyish etilgan?

- a) Qo'g'irchoq teatrlarida;
- b) Ochiq maydonlarda;
- s) Uylarda.

8. Qaysi faslda daraxtlar gullab, tabiat uyg'onadi?

- a) bahorda;
- b) yozda;
- s) kuzda.

9. Quyidagilardan qay biri milliy o'yinlar hisoblanadi?

- a) yengil atletika, "Bayroq olib qochish";
- b) "Cho'pon", "Oq terakmi, ko'k terak";
- s) "Kim uzoqqa uloqtiradi", "Arg'amchili estafeta".

10. Qanday o'tlarning bargi, guli va mevasidan dori tayyorlanadi?

- a) zararli o'tlarning;
- b) shifobaxsh o'tlarning;
- s) Daladagi o'tlarning.

2-sinf

1. "Karim chumolilarning tilini bilarkan" nomli hikoyada Karim yomg'ir yog'ishini qayerdan biladi?

- a) Karim chumolilarning tilini biladi;
- b) Osmonga qarab biladi;
- s) Chumolilar inini berkitganidan biladi.



”Nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarni shakllantirish” uslubiy qo’llanma

2. Hayvonlar ishtirok etgan ertakni toping?

- A) Minora va laylak;
- B) Eng yaxshi sovg'a;
- S) Qarg'a bilan tulki.

3. Navro'z arafasida o'tkaziladigan ariqlarni tozalash, daraxtlarni oqlash, xilma-xil gullar ekish qanday tadbir hisoblanadi?

- a) Yordam berish;
- b) Umumxalq bayrami;
- s) Umumxalq hashari.

4. Zar gilam, zar-zar gilam,
Ko'taray desam, og'ir gilam.

Topishmoqning javobini toping va uning nomoddiy madaniy merosning qaysi shakliga misol bo'lishini toping?

- a) Yer. Topishmoq;
- b) Maysa. Masal;
- s) Daraxt. Topishmoq.

5. Mehmondo'stlik haqidagi qanday o'yinlarni bilasiz?

- a) Zag'izg'on o'yini;
- b) Oq terakmi, ko'k terak o'yini;
- s) Mehmon-mehmon o'yini.

6. Faqat milliy kuylarimiz berilgan qatorni toping?


- a) "Qashqarcha", "Sanam ufrosi";
- b) "Bolalar qo'shig'i", "Qizaloq";
- s) "Xorazm lazgisi", "Sog'lom avlod".

7. Milliy bayramlarimiz keltirilgan javobni toping?

- a) Navro'z ;
- b) Mehrjon, Hosil;
- s) A va B javoblar to'g'ri.

8. Nomoddiy madaniy meros biz uchun zarurmi?

- a) Yo'q;



”Nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarni shakllantirish” uslubiy qo’llanma

b) Biz undan foydalanmaymiz;

s) Ha.

9. Qaysi qatorda faqat Bahor faslida tayyorlanadigan milliy taomlar keltirilgan ?

a) Halim va Sumalak;

b) Osh va ko'k somsa;

s) Chuchvara va Osh.

10. "Qora sovuq" qaysi faslda yuz beradi?

a) Qishda;

b) Kuzda;

s) Bahorda.

3-sinf

1. Navro'z haqidagi rivoyatda O'g'uz o'g'li qaysi kunni bayram sifatida nishonlaydi?

a) Bo'ri unga ip yigirib, bug'doy ekishni o'rgatgan, bo'ri bilan uchrashgan kunini;

b) Quyosh chiqib kunlar iligan kunni ;

s) Qo'y boqishni o'rgangan kunini.

2. "Sumalak" so'zining ma'nosi nima?

A) Qirq malak

B) O'ttiz malak

S) Yuz malak

3. Qaysi qatorda aqlni charxlovchi o'yinlar ko'rsatilgan?

A) Tez aytish, Chandish, Sanama


B) Oq terakmi, ko'k terak, Guldur-gup, Sanama

S) Chillak, Boylandi, Mehmon-mehmon

4. Mushuklarning qanday inson uchun foydali jihatlari bor?

A) Ularni silash asablarni tinchlantiradi

B) Mushuklar xavf- xatarni oldindan sezib, insonni ogohlantiradi



”Nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarni shakllantirish” uslubiy qo’llanma

S) A va B javoblar to'g'ri

5. "Ota vasiyati" nomli O'zbek xalq ertagida otaning kenja o'g'li qanday hunar bilan shug'ullanardi?

A) Kulolchilik

B) Temirchilik

S) O'ymakorlik

6. Kulolchilik, Temirchilik, O'ymakorlik, Gilamdozlik bular nomoddiy madaniy merosning qaysi shakli?

A) og'zaki anana va shakllari

B) an'anaviy hunarmandchilik

S) ijrochilik san'ati

7. Tulki va yirtqich qushlar kamayib ketsa qanday salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin?

A) Salbiy holat yuz bermaydi

B) Kemiruvchilar ko'payib ketadi

S) Qushlar ko'payib ketadi

8. Erinchoq ikki ishlar, oxiri barmog'in tishlar. Bu nomoddiy madaniy merosning qaysi turiga misol bo'la oladi?

A) Maqol

B) Masal

S) Topishmoq

9. Afsona va rivoyatlar nomoddiy madaniy meros tarkibiga kiradimi?

A) Afsonalar kiradi


B) Rivoyatlar kiradi

S) Har ikkisi ham kiradi

10. Qaysi qatordagi nomoddiy madaniy meros shakllari to'g'ri keltirilgan?

A) Qantak o'rikning qoqisi qanddek shirin (tez aytish), "Lolacha" (o'zbek xalq kuyi)

B) Do'st achitib gapirar, dushman kuldirib (masal), "Nayrez" (o'zbek xalq kuyi)



”Nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarni shakllantirish” uslubiy qoʻllanma

S) Kelib og'zini ochar,

Tishlab olsa qochar (topishmoq), "Norim-norim" (tojik xalq kuyi)

4-sinf

1. "To'maris" nomli rivoyatda qanday g'oya ilgari suriladi?

A) Do'stlik g'oyasi

B) Vatanparvarlik va tinchlik g'oyasi

S) Jangovarlik va buzg'unchilik g'oyasi

2. Mehnat qo'shiqlari to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping?

A) "Xo'p hayda", "Urchuq", "Jiyda"

B) "Lapar", "Xo'p hayda", "Yallama yorim"

S) "Diyorim", "Ajam II", "Charx II"

3. "Jimjiloq" ertagida bo'ri oxir-oqibat qanday hayvon bo'lib qoladi?

A) Tulki

B) Mushuk

S) It

3. "Tuya yutganini bilmaydi, kavshaganini biladi" bu nomoddiy madaniy merosning qaysi shakliga kiradi?

A) Matal

B) Maqol

S) Hikmatli so'z

4. "Hidi, tilimi va mazasidan" hikoyasida bog'bon qovunni qayerdan olib kelgan edi?

A) Andijondan

B) Farg'onadan



S) Namangandan

5. Marosim aytimi to'g'ri keltirilgan qatorni toping?

A) "Ramazon"

B) Lapar

S) "Onajonim sog' bo'ling"



”Nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarni shakllantirish” uslubiy qo’llanma

6. "Yomg'ir yog'aloq", "Binafsha" qo'shiqlari nomoddiy madaniy merosning qanday shakli hisoblanadi?

- A) Bolalar xalq qo'shiqlari, Ijrochilik san'ati
- B) O'zbek xalq kuyi, Urf-odat marosim va bayramlar
- S) O'zbek xalq qo'shig'i, an'anaviy hunarmandchilik aytimlari

7. "Hunarning foydasi" hikoyasida Gushtosib qanday hunar o'rganishga qiziqar edi?

- A) Zargarlik
- B) Temirchilik
- S) Gilam to'qish

8. Sopol lagan, osh tovoq,

Ko'zasi chinnilardek,

Oyna misol yarqirar.

Bu - o'tmish san'at meros.

Yuqoridagi she'rda nomoddiy madaniy merosning qanday shakli haqida so'z ketadi?


- A) an'anaviy hunarmandchilik
- B) og'zaki an'ana va shakllar
- S) Urf-odat marosim va bayramlar

9. Navro'z bayrami munosabati bilan aytiladigan an'anaviy qo'shiqlar va ularning namoyon bo'lish shakli to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping?

- A) "Boychechak", "Xo'p hayda", ijrochilik san'ati
- B) "Ramazon", "Yomg'ir yag'aloq", Urf-odat marosim va bayramlar
- S) "Navro'z", "Boychechak", ijro san'ati

10. Nomoddiy madaniy meros namunasi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) "To'maris" rivoyati
- B) "Jimjiloq" ertagi
- S) A va B javoblar to'g'ri



5-sinf

Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Bolalarga yordam ko'rsatish xalqaro jamg'armasi" qisqartirilgan holda qanday nomlanadi?

A) YUNESKO

B) YUNISEF

S) BMT

2. Konvensiya so'zining manosi nima?

A) kishilarnig muayyan guruhiga yordam berish maqsadida tuzilgan tashkilot

B) ma'lum bir faoliyat turiga oid xalqaro shartnoma

S) biror-bir maxsus masalaga oid xalqaro shartnoma

3. Qaysi qatordagi so'zda imlo xato mavjud?

A) Nomodiy

B) Konvensiya

S) Sumbula

4. Nomoddiy madaniy meros tushunchasi qanday qadriyatlarni o'z ichiga oladi?

A) avloddan-avlodga o'tib kelayotgan madaniy qadriyatlarni

B) xalqning o'zligini namoyon etishiga xizmat qiluvchi qadriyatlarni

S) A va B javoblar to'g'ri

5. BMT tomonidan nechinchi yilda 21-mart - Xalqaro Navro'z kuni deb e'lon qilindi?

A) 2010-yil

B) 2011-yil


S) 2012-yil

6. Nomoddiy madaniy merosning vorislik tuyg'usi deganda nimani tushunasiz?

A) Nomoddiy madaniy merosning qadimiyligi

B) Nomoddiy madaniy merosning avloddan-avlodga o'tib borishi

S)



”Nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarni shakllantirish” uslubiy qo’llanma

7. Nomoddiy madaniy merosga xos tushunchalar qatorini toping?

- A) Milliy va umumbashariy qadriyatlar
- B) Ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan meros
- S) Barcha javoblar to'g'ri

8. Qushlarning pastlab uchishi ob-havoning qanday o'zgarishidan darak beradi?

- A) Havoning isib ketishidan
- B) Havo aynib, yomg'ir yog'ishidan
- S) Tuman tushishidan

9. Odamlarga xos xususiyatlarni hayvonlarga va narsa-buyumlarga ko'chiruvchi nomoddiy madaniy meros shakli qaysi janr hisoblanadi?

- A) Maqol
- B) Masal
- S) Ertak
- D) Afsona

10. Ota-bobolarimizning uzoq yillar mobaynida ko'rgan-kechirganlari, tajribalari asosida kelgan xulosasi so'zlari...

- A) maqol
- B) topishmoq
- S) afsona

6-sinf


1. Qaysi qatorda Katta ashuladan na'muna keltirilgan?

- A) "Dugoh Husayniy" taronasi
- B) "Ufori suvora"
- S) "Cho'li iroq"

2. Shashmaqom tarkibiga kiruvchi maqomni toping?

- A) "Tasnifi Buzruk"
- B) "Qo'shtor"
- S) "Ustozlar"

3. "Tamoshosini" qaysi dostonidan parcha hisoblanadi?



”Nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarni shakllantirish” uslubiy qoʻllanma

- A) "Alpomish" dostonidan
- B) "Oshiq g'arib va Shohsanam" dostonidan
- S) "Malikayi Ayyor" dostonidan

4. Ahamoniylar davridagi hunarmandchilik markazlari to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping?

- A) Qiziltepa, Yerqo'rg'on, Uzunqir
- B) Afrosiyob, Ko'zaliqir
- S) A va B javoblar to'g'ri

5. Xorzm vohasining mumtoz musiqasi keltirilgan qatorni toping?

- A) "Chapandozi suvora", "Mushkuloti Dugoh"
- B) "Suvora", "Feruz I"
- S) "Bayot I", "Ufori Suvora"

6. "Guliqahqah", "Kenja botir", "Zar kokilli yigit" ertaklaridagi an'anaviy timsollar qaysi manbaga borib taqaladi?

- A) "Avesto"
- B) "Devonu lug'otit turk"
- S) "Hamsa"

7. Vatanimiz hududidagi me'moriy obida va yodgorliklar nomoddiy madaniy meros tarkibiga kiradimi?



- A) Ha kiradi
- B) Faqat Ahmoniylar davridagilari
- S) Ular moddiy meros hisoblanadi

8. Qaysi qatorda mehnat qo'shiqlari berilgan?

- A) "Yor-yor", "Kelin salom"
- B) "Maydagul", "Churey-churey"
- S) "Boychechak", "Chittigul"

9. Qadimda odamlar vaqtni qanday aniqlashgan?

- A) Cho'p tayoqchalar yordamida
- B) Osmon jismlarining harakatiga qarab
- S) Suv sathiga qarab



”Nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarni shakllantirish” uslubiy qoʻllanma

10. Xalq og'zaki ijodining na'munasi bo'lmish o'lanlarni yozma adabiyotga olib kirgan shoir kim?

- A) Abay
- B) Maxtumduli
- S) Avaz O'tar

11. Savol-javob tarzidagi xalq qo'shig'i qaysi qatorda berilgan?

- A) "Boshginam og'riydi"
- B) "Boychechak"
- S) "Chittigul"

7-sinf

1. "Shashmaqom" va Katta ashula nomoddiy madaniy merosning qaysi shakli saifatida namoyon bo'ladi?

- A) Ijrochilik san'ati
- B) Urf-odat marosim va bayramlar
- S) Tabiat va koinotga oid bilim va urf-odatlar

2. Durbekning "Yusuf va Zulayho" dostoni nomoddiy madaniy merosning qaysi shakliga kiradi?



- A) Og'zaki an'ana va shakllarga
- B) Urf-odat marosim va bayramlarga
- S) mualliflik asarlari nomoddiy madaniy meros hisoblanmaydi

3. Ilk o'rta asr ganchkorlik san'atining nodir na'munasi to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping?

- A) Varaxsha topilmasi
- B) Bolaliktepa
- S) Afrosiyob

4. Ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyoda keng rivojlangan musiqa, raqs, qiziqchilik va dorbozlik san'ati nomoddiy madaniy merosning qaysi shakliga misol bo'la oladi?

- A) O'zlikni namoyan qilishning og'zaki an'ana va shakllariga
- B) Urf-odat marosim va bayramlarga



”Nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarni shakllantirish” uslubiy qo’llanma

S) Ijrochilik san'atiga

5. IX-XIII asrlarda xalq kuylari asosida yaratilgan va hozirgi kunda Nomoddiy madaniy merosning reprizinatativ ro'yxatiga kiritilgan o'zbek va tojik mumtoz kuyini toping?

- A) Lazgi
- B) Mavrigi
- S) Shashmaqom

6. Xalq qo'shiqlari, yallachilik, ertak, afsona, maqol, do'ppido'zlik, yog'och o'ymakorligi, yomg'ir chaqirish marosimlari

Yuqoridagilardan qaysilari nomoddiy madaniy merosning og'zaki an'ana va shakllariga xos?

- A) xalq qo'shiqlari, ertak, yallachilik
- B) ertak va afsona va maqol
- S) yog'och o'ymakorligi, do'ppido'zlik, yomg'ir chaqirish marosimlari

7. Qushlar harakatiga qarab ob-havo o'zgarishini bashorat qilish nomoddiy madaniy merosning qaysi shakliga kiradi?



- A) O'zlikni namoyan qilishning og'zaki an'ana va shakllariga
- B) Urf-odat marosim va bayramlarga
- S) Tabiat, koinotga oid bilim va urf-odatlar

8. Xalq dostonlarida qahramonning harakati tezlashgan holatlar necha bo'g'inli barmoq vaznida kuylanadi?

- A) o'n bir hijoli vaznda
- B) to'qqiz bo'g'inli vaznda
- S) sakkiz bo'g'inli vaznda
- D) yetti hijoli vaznda

9. Sharq bozorining o'ta tabiiy, jozibador tasviri qaysi dostonida berilgan va u necha misradan iborat?

- A) "Ravshan" dostoni, 150 misradan
- B) "Ravshan" dostoni, 145 misradan
- S) "Kuntug'mish" dostonida, 90 misradan



”Nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarni shakllantirish” uslubiy qoʻllanma

D) "Kuntug'mish" dostoni, 95 misradan

10. Xorazmda doston aytuvchilar kim deb ataladi va dostonlar nomoddiy madaniy merosning qaysi shakliga misol bo'ladi.

A) xalfa; o'zlikni namoyon qilishning og'zaki an'ana va shakllari

B) baxshi; ijro san'ati

S) oqin; urf-odat, marosim va bayramlar

11. "Go'ro'g'li" turkumidagi dostonda "sher baytli, yo'lbars kelbatli, qoplon yurakli, arslon bilakli yigitlar" deb tariflangan qahramonlar nomini belgilang?

A) Ravshan, Hasanxon

B) Aynoq kal, Jaynoq kal, Ersak akl, Tersak kal

S) Alpomish, Qorajon

12. Qaysi xalq dostoni qahramoni

"Qush uchmagan cho'llardan,

So'na yuzgan ko'llardan,

Odami yo'q yo'llardan,

Dim uchi yo'q cho'llardan

Qistab o'tib boradi"?

A) "Ravshan", Ravshan

B) "Kuntug'mish", Kuntug'mish

S) "Ravshan", Hasanxon

D) "Alpomish", Alpomish

8-sinf


1. "Qirqqiz", "Alpomis", "Qulbon" kabilar nomoddiy madaniy merosning qaysi shakliga xos va ular qaysi millatga tegishli ?

A) og'zaki an'ana va shakllar, Qoraqalpoqlarga tegishli

B) urf-odat marosim va bayramlar, Qirg'izlarga tegishli

S) og'zaki an'ana va shakllar, O'zbeklarga tegishli

2. Qoraqalpoqlarning Maman botir, Esanheli mahrum, Oydo'stbiy kabi xalq qo'shiqlari nomoddiy madaniy merosning qaysi shaklida ulug'lanadi?



”Nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarni shakllantirish” uslubiy qo’llanma

A) Urf-odat, marosim va bayramlarda

B) Ijrochilik san’atida

S) O’zlikni namoyon qilishning og’zaki an’ana va shakllarida

3. Ichan qal’a qanday ma’noni bildiradi?

A) tashqi qal’a

B) kichik qal’a

S) ichki qal’a

4. Xiva(XVII-XVIII) xonligi tarixiy manbalarida hunarmandchilikning necha turi qayd etilgan va ular nomoddiy madaniy merosning qaysi shaklida namoyon bo’ladi?

A) 25 turi, urf-oadat marosim va bayramlar

B) 33 turi, an’anaviy hunarmandchilik

S) 27 turi, an’anaviy hunarmandchilik

5. XVIII asrda vujudga kelgan Buxoro "Shashmaqom"i qanday maqomlardan iborat bo’lgan?

A) Buzruk, Rost, Navo

B) Dugoh, Segoh, Iroq

S) Barcha javoblar to’g’ri

6. Milliy an’ana va qadriyatlarimizni nima uchun nomoddiy madaniy meros tarkibiga kiritamiz?

A) Ular avloddan-avlodga o’tib kelayotgan ming yillik qadriyat

B) Ular tarkibida xalqimizning o’zligini namoyon qiluvchi qadriyatlar jamlangan


S) Barcha javoblar to’g’ri

7. 2009-yilda "Navro’z" bayrami qaysi davlatlar bilan birgalikda Nomoddiy madaniy merosning Reprezentativ ro’yxatiga kiritilgan?

A) O’zbekiston, Eron, Turkiya, Pokiston

B) O’zbekiston, Ozarbayjon, Hindiston, Qirg’iziston

S) A va B javoblar to’g’ri



”Nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarni shakllantirish” uslubiy qo’llanma

8. "Alpomish" dostonining 1000 yilligi jahon miqyosida qachon nishonlandi?

- A) 1997-yil
- B) 1999-yil
- S) 2000-yil
- D) 1996-yil

9. "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan xalq baxshisi" unvoni qachon ta'sis etilgan?

- A) 1998-yil 12-marta
- B) 2001-yil 15-martda
- S) 1999-yil 13-martda
- D) 2000-yil 14-martda

10. "Kuntug'mish" dostonidagi hiyonatkor obraz kim?

- A) Buvraxon
- B) Azbarxo'ja
- S) Qoraxon
- D) Xolmo'min

11. "Mavrigi", "Ushshoq", "Miskin" singari turkumlar nomoddiy madaniy merosning qaysi shakliga xos?

- A) Urf-odat, marosim va bayramlarga
- B) Ijrochilik san'atiga
- S) O'zlikni namoyon qilishning og'zaki an'ana va shakllariga

12. Tabiat va koinotga oid bilim va urf-odatlar to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping?

A) an'anaviy xalq taqvimi, milliy sartaroshlik, an'anaviy pazandachilik san'ati

- B) quroqchilik, kandikorlik, milliy sartaroshlik va kulolchilik
- S) hasharlar, tomoshalar, bayramlar va sayllar

13. Nomoddiy madaniy meros qanday xususiyatlarga ega bo'lishi zarur?



”Nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarni shakllantirish” uslubiy qoʻllanma

- A) avloddan-avlodga o'tkazish, muayyan hamjamiyatlar va guruhlar tomonidan ayrof-muhitga, tabiatga va o'z tarixiga bog'liq holda yaratilish
- B) o'ziga xoslikni vorislik tuyg'usini shakllantirish hamda insoniyat ijodini va madaniy turli-tumanlikni hurmat qilinishiga ko'maklashish

S) A va B javoblar to'g'ri

14. 8-sinf darsligidagi "Kuntug'mish" dostonining qaysi baxshidan yozib olingan nusxasi keltirilgan?

- A) Bekmurod Jo'raboy o'g'lidan
- B) Nurmon Abduvoy o'g'lidan
- S) Egamberdi Ollamurod o'g'lidan
- D) Ergash Jumanbulbul o'g'lidan

9-sinf

1. Nomoddiy madaniy merosning bevosita til bilan bog'liq shaklini aniqlang?



- A) Tabiat, koinotga oid bilim va urf-odatlar
- B) Urf-odat, marosim va bayramlar
- S) O'zlikni namoyan qilishning og'zki an'ana va shakllari

2. Buxora amirligi hunarmandlarining asosiy ishlab chiqarish tarmoqlari qaysilar edi?

- A) gilam va namat tayyorlash
- B) turli kiyim-bosh tayyorlash
- S) ip yigirish va gazlama tayyorlash
3. "Kasanachilik" atamasi qanday ma'noni bildiradi?

- A) bir turdagi maxsulot ishlab chiqarish
- B) uyda yollanib ishlanadigan hunarmandchilik
- S) iqtisodiyotning bir sohasida yakka humronlik

4. Nomoddiy madaniy merosning Tabiat va koinotga oid bilim va urf-odatlar to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping?



”Nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarni shakllantirish” uslubiy qo’llanma

A) Milliy va mahalliy miqyosida o'tkaziladigan sayllar, hasharlar, tomoshalar

B) an'anaviy xalq taqvimi, kunning botishiga qarab kelgusi kunning qanday kelishini aytib berish

S) Yomg'ir chaqirish marosimlari, ertak, afsona va rivoyatlar

5. Nisbiy so'zli ergashgan qo'shma gap berilgan qatorni toping?

A) Kim harakat qilsa, u baraka topadi

B) Shuni doimo yodda tutish kerakki, nodon odamning gapi ko'p bo'ladi

S) Mehmon kelsa eshikdan, rizq kelar teshikdan

D) Odam borki, odamlarning naqshidir, odam borki, hayvon undan yaxshidir

6. Qismlari o'rtasida zidlash munosabati bo'lmagan qo'shma gap qaysi qatorda berilagan?

A) Yaxshidan bog' qoladi, yomondan dog'

B) Oy tunda kerak, aql esa kunda

S) Jahl dushman, aql esa do'st

D) Egrilik insonni qabohatga yetaklaydi, to'g'rilik bo'lsa insonni saodatga boshlaydi

7. "Alpomish" dostonida Boysaribiy 10 ming uyli Boysun qo'g'irot eli bilan ko'chayotganda Barchin nechta tuyaga sepini ortadi?

A) 40 ta

B) 50 ta

S) 60 ta

D) 70 ta

8. "Alpomish" dostonidagi Surxayl kampir o'g'illarining ismini belgilang?


1) Ko'kaldosh; 2) Ko'kaman; 3) Ko'kqashqa; 4) Boyqashqa

5) Jonqashqa 6) Toyqashqa 7) Qo'shquloq 8) Qorajon

A) 1,2,3,4,5,6,8

B) 1, 2, 3,4,5,6,7

S) 1,2,3,4,5,6,7,8



”Nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarni shakllantirish” uslubiy qoʻllanma

D) 1,2,4,5,6,7,8

9. Qaysi qatorda nomoddiy madaniy meros shakli va unga xos janrlar to'g'ri ko'rsatilgan?

A) Tabiat, koinotga oid bilim va urf-odatlar: osmon jimlari bog'liq qarashlar, ularga oid mif, afsona va rivoyatlar

B) Urf-odat, marosim va bayramlar: yomg'ir chaqirish marosimlari, beshik to'yi, hashar, tomoshalar

S) O'zlikni namoyan qilishning og'zki an'ana va shakllari: ertak, afsona, mif, xalq qo'shiqlari

10. Nomoddiy madaniy merosning namoyon bo'lish shakllari nechta?

A) 4 ta

B) 6 ta

S) 3 ta

11. Shart ergash gapli qo'shma gap berilgan qatorni toping?

A) Biliming osmonga yetgan bo'lsa ham,

Boshqalar ilmiga quloq sol har dam

B) Dutor chalib o'tirsam, tori uzilib ketdi

S) Qayerda ahillik bo'lsa, shu yerda baraka bo'ladi


D) Mehnat qilsang baxting ochiladi

12. Nomoddiy madaniy merosning ijro san'atiga tegishli shakllar to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping?

A) farzand tarbiyasi bilan bog'liq marosimlar, ism qo'yish marosimi;

B) baxshichilik, xalfachilik;

S) milliy xalq o'yinlari, yog'och o'yinlari.



Test javoblari 1-sinf

Savol	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
Javob	A	S	B	B	S	A	B	A	B	B

2-sinf

Savol	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
Javob	S	A	S	A	S	A	S	S	A	S

3-sinf

Savol	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
Javob	A	B	A	S	B	B	B	A	S	A

4-sinf

Savol	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
Javob	B	A	A	B	A	S	B	A	S	S

5-sinf

Savol	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
Javob	B	S	A	S	A	S	S	B	B	A

6-sinf

Savol	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
Javob	A	A	B	S	B	B	S	B	B	S

7-sinf


Savol	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
Javob	A	B	A	S	S	S	A	S	B	S	A	B

8-sinf

Savol	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14
Javob	A	B	S	S	S	S	S	B	S	S	B	A	S	A

9-sinf

Savol	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
Javob	S	A	B	B	B	S	A	B	B	A	B	B



Xulosalar



Umumiy o'rta ta'lim tizimida nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarni o'quvchilar ongiga singdirish orqali ularda vatanparvarlik, komillikka intilish, asriy qadriyatlarimizga nisbatan hurmat xissini shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek jamiyat ijtimoiy barqarorligini ta'minlashda NMMga oid tushunchalarni shakllantirishning konseptual muammolari aniqlanib, ularning ijobiy yechimi uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqilishi va ta'lim jarayonida NMMga yo'naltirilgan o'quv jarayoni majmuaviy tashkil etilishi jamiyat ijtimoiy barqarorligini ta'minlashga o'qitish samaradorligining ta'siri oshishiga xizmat qiladi.

NMMga oid tushunchalarni shakllantirishning nazariy asoslari o'rganilib, ta'limning konseptual muammolari aniqlash ham muhimdir. Umumiy o'rta ta'lim (1-9-sinflar) misolida NMM mazmuni ta'lim jarayonida yoritilishi va jamiyat ijtimoiy barqarorligini ta'minlashda NMMga yo'naltirilgan o'quv jarayoni samaradorligining oshishi tajribada o'z isbotini topadi.


Jamiyat ijtimoiy barqarorligini ta'minlashda NMMga oid tushunchalarni shakllantirishning psixologik-pedagogik imkoniyatlari asosida mezonlar ishlab chiqilib, nazariyasiga qo'shgan ulushi nomoddiy madaniy merosni ta'minlovchi o'quv materiallariga ega bo'lishi, amalga oshirishdagi metod va vositalar tizimining yaratilganligi, ta'lim jarayonida NMM mazmuni, shart-sharoitlari, vositalari va ularni takomillashtirish yo'llarining ilmiy asoslab berilishi bilan bog'liq bo'ladi.

Jamiyat ijtimoiy barqarorligini ta'minlashda NMM mazmuni, shakl va metodlari, pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash, metodik tavsiyalar ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy qilishni taqazo etadi.

Jamiyat ijtimoiy barqarorligini ta'minlashda NMM mazmuni, holati va ularning tarkibiy qismlarini nazariy jihatdan tahlil qilishi, jamiyat ijtimoiy barqarorligini ta'minlashda NMMning konseptual muammolarini o'rganilishi,





”Nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarni shakllantirish” uslubiy qoʻllanma ta'lim jarayonida NMMga oid tushunchalarni shakllantirishning nazariy tipologiyasini aniqlanishi, NMMga oid tushunchalarni shakllantirishning shakl va metodlarining ishlab chiqilishi, pedagogik shart-sharoitlarning aniqlanishi, nomoddiy madaniy merosni shakllantirish metodikasining ishlab chiqilishi, ulardan tajriba-sinov ishlarda foydalanish, shuningdek amaliy-metodik tavsiyalarni ishlab chiqilishi va tegishli ta'lim muasasasi amaliyotida foydalanish maqbulligi aniqlandi.




Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2012. - 47 b.
2. Karimov I. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - Toshkent: Sharq, 1997. - 64 b.
3. Karimov I. Barkamol avlod orzusi. - Toshkent: Sharq, 1999. -181 b.
4. Karimov I. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - Toshkent: Ma'naviyat, 2008. - 176 b.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 7 oktyabrda “2010-2020 yillarda nomoddiy madaniy meros ob'yektlarini muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish davlat dasturini tasdiqlash to'g'risida”gi 222-sonli Qarori.
6. A.A.Azizov, N.G.Akinshina, B.E.Nishonov, “Barqaror taraqqiyot ta'limi” o'quv - uslubiy qo'llanma, 2-nashri. Toshkent -2009, So'z boshi.
7. Galiyev Sh. O'zbek bolalar o'yin folklori. - Toshkent: Fan, 1998. - 96 b.
8. Gofurov H. Xalq o'yinlari, qo'shiqlari va an'analariga bir nazar. - Toshkent, 1992. - 82 b.
9. Jo'rayev M. O'zbek xalq samoviy afsonalari. - Toshkent.: Fan, 1995. - 109 b.
10. Jo'rayev M. O'zbek xalq samoviy afsonalarining tarixiy asoslari: Diss. ... fil.f.n. -T.: 1996.
11. Jo'rayev M. O'zbek xalq taqvimi va mifologik afsonalar. - Toshkent.: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 1994. -108 b.
12. Jo'rayev M., Narziqulova M. Mif, folklor va adabiyot. - Toshkent.: A. Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi, 2006. - 184 b.
13. Jo'rayev M., Shomusarov Sh. O'zbek mifologiyasi va arab folklori. - Toshkent.: Fan, 2001. - 136 b.




”Nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarni shakllantirish” uslubiy qoʻllanma

14. Jumayeva S. Hayvonlar haqidagi ertaklarning genetik asoslari va spetifikasi: Diss. ... fil.f.n. -T.:1996. 154 b; SuvankulovB. O'zbek xalq latifalarining janr xususiyatlari va badiyati: Diss. ... fil.f.n. -T.: 2007.
15. Mahkamova M. Pedagogik texnologiyalar. - Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2012. - 184 b.
16. Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo'yicha Konvensiyani amalga oshirish bo'yicha operativ yo'riqnoma.
17. Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo'yicha xalqaro Konvensiya.
18. O'zbekiston milliy ensiklopediya - Toshkent, "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2005 y. - 10 tom 500 b.
19. O'zbek folklor ocherklari. / Mas'ul muxarrir Sarimsoqov B. 3 tomlik. - Toshkent.: Fan, 1989. T. 2. - 318 b.
20. O'zbek folklor ocherklari. / Mas'ul muxarrir T. Mirzayev. 3 tomlik. - Toshkent.: Fan, 1988. T.1. - 286 b.
21. O'zbek xalq ijodi bo'yicha tadqiqotlar. / Mas'ul muxarirlar B.Sayimov., G'.Mo'minov. - Toshkent.: Fan, 1981. - 158 b.
22. O'zbek xalq ijodi. To'plam/ Mas'ul muxarir T.Mirzayev. - Toshkent.: Fan, 1967. - 198 b.
23. Pedagogikadan atamalar lug'ati. - Toshkent: Fan, 2008. - 195 b.
24. Qodirov K. O'zbek shirli ertaklarida zamon va makon talqini: Diss. ... fil.f.n. -T.: 2004.
25. Qoraboyev U. Madaniyat masalalari. - Toshkent : O'zbekiston milliy ensiklopedyasi, 2009. - 288 b.
26. Rahmonova M. O'zbek xalq tarixiy afsonalarining o'ziga xos xususiyatlari, genezisi va tasnifi: Diss. ... fil.f.n.-T.:2004. - 143 b.
27. Rajabov U. Kichik yoshdagi maktab o'quvchilarini bolalar folklori vositasida insonparvarlik xislarida tarbiyalash: Diss. ... ped.f.n. -T.: 1992. - 164 b.



”Nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarni shakllantirish” uslubiy qoʻllanma

28. Safarov O. Oʻzbek xalq bolalar oʻyinlari. - Toshkent: Sharq, 2013. - 176 b.
29. Safarova N. O'zbek bolalar o'yin folklorining janriy tabiati, genezisi va badiiy xususiyatlari: Diss. ... fil.f.n. -T.: 2005; Ollaberganova S. Xalfalar ijodining o'zbek folkloridagi o'rni: Diss. ... -T.: 2007. - 135 b.
30. Sarimsoqov B. Olqishlar va qarg'ishlar//O'zbek folklor ocherklari. - Toshkent.: 1988. T. I. -B 128-151.
31. Sarimsoqov B. O'zbek marosim folklori. - Toshkent.: Fan, 1986. - 216 b.
32. Sarimsoqov B. O'zbek folklorining janrlar sostavi// O'zbek folklor ocherklari. - Toshkent.: 1988. T. I. -B 63-84.
33. Teshaboyev A. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda folklor asarlaridan foydalanish: Diss. ... ped.f.n. -T.: 1995. - 152 b.
34. Tursunov S.N., Pardayev T.R., Tursunov A.S., Togʻayeva M.R. Oʻzbekistonning janubiy huddudlarida nomoddiy madaniyat tarixi. - Toshkent: Muharrir, 2012. - 200 b.



MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB NOMODDIY MADANIY MEROS VA TA'LIM-TARBIYA	
JARAYONI	4
1.1. Nomoddiy madaniy meros tushunchasi va muhofazasi.	4
1.2. Nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalardan umumiy o'rta	
ta'lim tizimida foydalanish imkoniyatlari	10
II BOB O'QUV JARAYONIDA NOMODDIY MADANIY MEROSGA	
OID TUSHUNCHALARDAN FOYDALANISH	23
2.1. Boshlang'ich ta'lim tizimida nomoddiy madaniy merosga oid	
tushunchalarni singdirish	28
2.2. 5-9-sinflarda nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarni	
singdirish	47
2.2. O'quv jarayonida nomoddiy madaniy merosga oid o'zlashtirilgan	
bilimlarni sinab ko'rish uchun test topshiriqlaridan na'munalar	71
XULOSA.....	90
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	92